

V.S. RAHMONOVA

ONA TILI

**YORDAMCHI MAKTABLARNING
4-SINFI UCHUN DARSLIK**

*O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi
tasdiqlagan*

Qayta ishlangan nashri

**Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2013**

UO'K: 811.512.133
KBK 81.20'zb
P33

Taqrizchilar:

D. Nurkeldiyeva – Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti;

M. Xo'jayeva – Toshkent shahar 66- yordamchi
maktab direktori.

Rahmonova V.

P33 Ona tili 4:/maxsus maktablarning 4-sinfi uchun darslik/
V.Rahmonova. – Qayta ishlangan nashri. – Toshkent:
Cho'lpon nomidagi NMIU, 2013. – 112 b.
ISBN 978-9943-05-570-4

UO'K: 811.512.133
KBK 81.20'zb

ISBN 978-9943-05-570-4

© **V.S. Rahmonova, 2013**
© **Cho'lpon nomidagi NMIU, 2013**

1- SENTABR – MUSTAQILLIK BAYRAMI



1- mashq. Rasm asosida hikoya tuzing. Hikoyangiz to‘rt-beshta gapdan iborat bo‘lsin. Unga sarlavha topib yozing.

TAKRORLASH

GAP

2- mashq. O'qing.

Biz O'zbekistonda yashaymiz. O'zbekiston – mustaqil davlat. Biz o'z vatanimiz bilan faxrlanamiz. O'zbekistonning poytaxti – Toshkent.

Toshkent katta va chiroyli shahar. Ko'chalari keng va toza. Shaharda trolleybus, avtobus va tramvaylardan tashqari metro ham qatnaydi.

Ko'chiring. Matnda nechta gap bor? Gaplar nimalardan tuzilgan?

3- mashq. O'qing. Ko'chiring. Yozganingizni tekshiring.

Biz Vatanimizni onamizdek sevamiz. Shuning uchun uni ona-Vatan deymiz. Bizning Vatanimiz – O'zbekiston Respublikasi. Uning o'z davlat gerbi, bayrog'i va madhiyasi bor.

Nechta gap yozdingiz? Gapning boshini va oxirini qanday belgiladingiz?

4- mashq. O'qing.

VATANIM

Chaman-chaman gullarga
Sayroqi bulbullarga,

Ko'kni quchgan uylarga,
Baxt keltirgan to'y'larga,
Quvnoq va sho'x kuylarga
Joydir go'zal Vatanim,
Boydir go'zal Vatanim.
Yagonadir chiroying,
Porlar g'olib bayrog'ing,
El bag'ridek bag'ring keng,
Kundek yorug' chirog'ing,
Boylikka kon har yog'ing,
Bor bo'l, go'zal Vatanim,
Yor bo'l, go'zal Vatanim.

(P. Mo'min)

She'ni ko'chiring. She'rda nechta gap borligini ayting.



Nutq gaplar orqali bildirilgan fikrdir.
Nutq gaplardan, gap esa so'zlardan tuziladi.

Gap tugallangan mazmunni bildiradi.

5- mashq. O'qing. Ko'chiring. Hikoyada nechta gap borligini aniqlang. Tinish belgilarini qo'ying, bosh harflar bilan yozing.

biz yozda oromgohda dam oldik oromgohimiz tog'lar bag'rida joylashgan men oromgohda juda ko'p do'stlar orttirdim yozgi ta'til maroqli o'tdi

6- mashq. Gaplarni o'qing. Har bir gap oxiriga tinish belgisini qo'yib ko'chiring.

Behzodning otasi paxtakor u har yili paxtadan mo'l hosil oladi

Muxtorning otasi bog'bon uning bog'ida gilos, olxo'ri daraxtlari ko'p

7- mashq. O'qing.

sevadi, yer, mehnatni
baxt, kishilarga, keltiradi, mehnat

Shu so'zlar ishtirokida gap tuzing va yozing.



Gapning birinchi so'zi **bosh harf bilan boshlanadi**. Gapning oxiriga **nuqta, so'roq belgisi** yoki **undov belgisi** qo'yiladi.

Gapda so'zlar ma'no jihatdan o'zaro bog'lanadi.

8- mashq. O'qing.

QUYOSH

Quyosh, quyosh, jon quyosh,
Yorug'likka kon quyosh!
Tezroq chopib chiqa qol,
Sevar seni qari, yosh.

Ketib qolma uzoqqa,
Bekinib olma tog'ga.
Tara zardek kokiling,
Kuch berar dala bog'ga.

(Egam Rahim.)

Uchta gapni ko'chiring. Gaplarning oxiriga qanday tinish belgisi qo'yilgan? Nima uchun?

9- mashq. O'qing. Har bir gap oxiridagi ohangiga diqqat qiling.

Yil necha fasldan iborat?

Kuz fasli qaysi oydan boshlanadi?

Kuzdan keyin qaysi fasl boshlanadi?

Bular qanday gaplar?

Savollarni javoblari bilan birga yozing.

10- mashq. O'qing. Matnni gaplarga ajratib ko'chiring.

Quddus Muhammadiy – bolalar shoiri uning she'rlarini bolalar sevib o'qiydilar siz uning qaysi she'rlarini o'qigansiz

bolalar shoirlaridan yana kimlarni bilasiz ularning qaysi asarlarini o'qigansiz

Har bir gapning oxiriga kerakli tinish belgisini qo'yib ko'chiring.

11- mashq. Nuqtalar o'rniga tegishli so'zlarni qo'yib, gaplarni ko'chiring.

(Kim?)... bolalarni o'qitadi.

(Kim?)... kasallarni davolaydi.

(Kim?)... kiyim tikadi.

(Kim?)... maktabda o'qiydi.

Qo'yish uchun so'zlar: *o'qituvchi, shifokor, tikuvchi, o'quvchi.*

12- mashq. Rasmga qarab, hikoya tuzing.
Bunda rasmlar tagidagi savollardan foydalaning.



Botir o‘ynab yurganda nimani ko‘rib qoldi?
U kapalak deb o‘ylagan narsa nima ekan?

13- mashq. Berilgan so‘zlardan gaplar tuzing.

do‘kondan, Farhod, oldi, qarmoq
yog‘ochga, Shuhrat, uni, bog‘ladi
dam olish, bordilar, daryoga, bolalar, kuni
Farhod, tashladi, qarmoqni, suvga
bolalar, tutdilar, baliq, beshta

Gaplarni yozing. Har bir gapni bosh harf bilan boshlashni va oxiriga kerakli tinish belgisini qo‘yishni unutmang.

TOVUSHLAR VA HARFLAR

ALIFBO



Tartib bilan berilgan barcha harflar **alifbo** deyiladi. Alifboda har bir harfning o'z o'рни bor.

Aa a	Bb be	Dd de	Ee e	Ff ef	Gg ge	Hh he
Ii i	Jj je	Kk ka	Ll el	Mm em	Nn en	Oo o
Pp pe	Qq qe	Rr er	Ss es	Tt te	Uu u	Vv ve
Xx xe	Yy ye	Zz ze	O'o' o'	G'g' g'e	Sh sh she	
Ch ch che		Ng ng nge				

1- mashq. O'qing.

1- oktabr – «O'qituvchilar va murabbiylar kuni». Mustaqillikka erishganimizdan so'ng mamlakatimizda ustozlarimiz bayrami umum-xalq bayrami deb e'lon qilindi, endi bu kunni barcha baravar nishonlaydi.

Matnni ko'chiring. Unli harflarning tagiga chizing.

2- mashq. Matnni o'qing.

O'lkamizda yalpiz, isiriq, kiyiko'ti, erman va boshqa o'simliklar o'sadi. Bu o'simliklar dorivor o'simliklar deyiladi. Dorivor o'simliklar inson hayotida katta ahamiyatga ega. Ular yig'ilib, dori-darmon tayyorlash korxonasiga topshiriladi.

Avval undosh tovush bilan, so'ngra unli tovush bilan boshlangan so'zlarni ko'chiring.

3- mashq. O'qing.

Oila, ota, ona, aka, uka, opa, singil, tog'a, xola, amaki, bobo, buvi.

So'zlarni bo'g'inlab yozing.

Tovushlar va harflar



Tovushlar yozuvda harflar bilan ifodalanadi. Tovush va harflar unli hamda undoshlarga bo'linadi.

Unli tovush va harflar soni oltita: **a, e, i, o, u, o'.**

Undosh harf va tovushlar 23 ta: **b, d, f, g, h, j, k, l, m, n, p, q, r, s, t, v, x, y, z, g', sh, ch, ng.**

Unli tovushlarni talaffuz qilganimizda, havo og'izda to'siqqa uchramay erkin o'tadi. Unli tovush bo'g'in hosil qiladi. So'zda nechta unli tovush bo'lsa, shuncha **bo'g'in** bo'ladi.

Undosh tovushni talaffuz qilganimizda, havo og'izda to'siqqa uchraydi.

4- mashq. Alifbodagi harflarni va ularning nomini o'qing. Unli harflarni ko'chiring.

5- mashq. Alifbodagi undosh harflarni ko'chiring. Undosh tovushlar qanday talaffuz qilinadi. O'zbek tilida nechta undosh harf bor?

6- mashq. Sinfdoxlaringizning ismini alifbo tartibida yozing.

7- mashq. Shahar nomlarini alifbo tartibida yozing.

8- mashq. Alifboning oxirgi beshta harfi ishtirok etgan so'zlar toping va yozing.

9- mashq. Qiz va o'g'il bolalar ismini ayting va ularni alifbo tartibida yozing.

10- mashq. Sabzavot va mevalar nomini ayting va alifbo tartibida yozing.

11- mashq. O'qing.

Maktabimizda turli to'garaklar tashkil etilgan. Biz ashula to'garagiga qatnaymiz. To'garak a'zolari G'ani Ilyosov, Dilfuza Madrahimova, Shuhrat Rasulov, Komil Suyunov, Farrux Zafarov va boshqalar bayramga yangi dastur tayyorladilar.

To'garak a'zolarining familiyasini alifbo tartibida yozing.

12- mashq. Nuqtalar o'rniga kerakli harflarni qo'yib, so'zlarni alifbo tartibida yozing.

S.bzi, .lma, kar.m, b.drinq, t.rvuz, q.rg'a, t.lki, m.sicha, quy.n, s.chqon, piy.z.

Avval hayvon va qushlar nomini, soʻngra sabzavotlar nomini ayting.

13- mashq. Nuqtalar oʻrniga kerakli harflarni qoʻyib, soʻzlarni alifbo tartibida yozing.

D.vlat, v.gon, sh.mol, n.vbatchi, p.midor, k.nki, p.lto, an.r, gulx.n, s.vol, h.ndalak.

Yozgan soʻzlaringizni lugʻatdan tekshiring.

14- mashq. Sinfingiz oʻquvchilarining roʻyxatini alifbo tartibida yozing.

15- mashq. Oʻqing. Shoir va yozuvchilarning ism va familiyalarini alifbo tartibida yozing.

Quddus Muhammadiy, Abdulla Oripov, Gʻafur Gʻulom, Hamid Olimjon, Ilyos Muslim, Zafar Diyor, Poʻlat Moʻmin, Sadriddin Ayniy, Hamza Hakimzoda, Chingiz Aytmatov.

16- mashq. Sabzavot va mevalarning nomini ayting va ularni alifbo tartibida yozing.

Tutuq belgisi

17- mashq. Oʻqing. Tutuq belgisi soʻzlarga eʼtibor bering.

Istiqloлга erishganimizdan soʻng qadimiy anʼanalarimizni tiklashga katta eʼtibor qaratildi. Bu anʼanalar bizga ajdodlarimizdan meros boʻlib qolgan. Milliy qadriyatlar va udumlarimizni oʻrganish asosida biz Navoiy, Bobur, Nodira, Mashrab kabi ajdodlarimizning adabiy-maʼnaviy meroslari bilan tanishamiz.

Ko'chiring. Tarkibida tutuq belgisi bo'lgan so'zlarning tagiga chizing.

18- mashq. Matn mazmuniga mos so'zlarni qo'yib, gaplarni ko'chiring.

Hayvonot bog'ida ...ni ko'rdik.	surat
Ne'mat ...ni ifodali o'qiydi.	Sur'at
... – a'lochi o'quvchi.	sher
Ma'ruf maymun ...ini chizdi.	she'r

Tutuq belgisi bo'lgan so'zlarning tagiga chizing.



Tutuq belgisi tovush bildirmaydi.

Tutuq belgisi (') unli tovushdan keyin kelganda, shu unlining cho'ziqroq aytilishini bildiradi: *ta'zim, ta'lim, sa'va, va'da*.

Tutuq belgisi undoshdan so'ng kelganda, uni unli tovushdan ajratib talaffuz qilishni bildiradi: *mash'al, san'at, Tal'at*.

19- mashq. O'qing.

Na'matak, e'lon, ta'lim, da'vo, ta'na, me'da, a'zo.

So'zlarni bo'g'in ko'chirish uchun bo'lib, namunadagidek yozing.

Namuna: *na'-matak*.

20- mashq. O'qing.

da'vo – davo	sa'va – sava
she'r – sher	ta'na – tana

Shu so'zlar ishtirokida gaplar tuzing va yozing.

21- mashq. Soʻzlarni oʻqing. Bir yoʻldan ikkinchi yoʻlga koʻchirib boʻlmaydigan soʻzlarni yozing. Bu soʻzlar nega boʻgʻinga boʻlinmaydi?

Eʼlon, chang, neft, shamol, stol, mashq, jiyda, goʻsht, sheʼr, qalʼa, sharq, choynak.

Har bir soʻzda nechta tovush va nechta harf borligini ayting.

yi, iy, uv, yoʻ harf birikmalari

22- mashq. Oʻqing. Qaysi undosh harf juftlab berilgan soʻzlarning maʼnosini farqlayotganini ayting.

Siyla – sila, ziyrak – zirak, biyron – biron.

Soʻzlarning maʼnosini ayting.

Soʻzlarni boʻgʻin koʻchirish uchun boʻlib yozing.

23- mashq. Oʻqing, **iy** harf birikmasining oʻqilishiga eʼtibor bering.

Vohid mehmonni siyladi. Nodir toychoqni siladi. Nilufar – ziyrak qiz. Opam unga zirak olib berdi.

Koʻchiring, **iy** harf birikmasining tagiga chizing.

24- mashq. Oʻqing. Soʻzlarni namunadagidek boʻgʻinlarga boʻlib yozing.

Namuna: *Ki-yim, ki-yik, ...*

Mayiz, mayin, sayil, yirik, yigʻmoq, qayiq, ayiq, boʻyin, oʻyin, loyiq, yigirma, qayin.

yi harf birikmasining tagiga chizing.

25- mashq. Rasmlar o'rniga ularning nomini bildirgan so'zni qo'ying va gaplarni yozing.



juda chiroyli hayvon.



qanday hayvon?

yi harf birikmali so'zlarning tagiga chizing.

26- mashq. O'qing.

1. O'lis yo'l otni sinaydi,
Og'ir yo'l mardni sinaydi.
2. Bir yigitga yetmish hunar oz.
3. Odob – kishining ziynati.

Ko'chiring. **yo'**, **yi**, **iy** harf birikmalarining tagiga chizing. Ular ishtirok etgan so'zlarning ma'nosini ayting.

27- mashq. O'qing.

1. O'qituvchi bolalarni o'qitadi. 2. O'quvchi o'qiydi. 3. Tikuvchi kiyimlarni tikadi. 4. To'quvchi to'qiydi.

Har bir gapga so'roq bering.

Gaplarni ko'chirib, **uv** harf birikmasining tagiga chizing.

28- mashq. O'qing. **yo'** hart birikmasi bo'lgan so'zlarning yozilishini bilib oling.

Yo'l, yo'lka, yo'lak, Yo'lchi, yo'ldosh, yo'lbars, yo'q, yo'lovchi, yo'llanma, yo'qlama, yo'g'on.

Ko'chiring, **yo'** harf birikmasining tagiga chizing.

29- mashq. O'qing.

BIZNING OILA

Mening otam – Xursand Yo'lchiyev jamoa xo'jaligida fermer bo'lib ishlaydi. Onam – Mavjuda Yo'lchiyeva ham fermada ishlaydi. U sut sog'uvchi.

Akam Yigitali Yo'lchiyev maktabda o'qiydi. Men ham o'quvchiman. To'rtinchi sinfda o'qiyman.

Ko'chiring, **yi, iy, yo', uv** harf birikmali so'zlarning tagiga chizing.

O'zingizning oilangiz haqida gapirib bering.

30- mashq. Nuqtalar o'rniga mazmunga mos so'zlarni qo'yib, gaplarni ko'chiring.

Biz ...dan yuramiz.

Hayvonot bog'ida ...ni ko'rdik.

Yo'lbars ... hayvon.

Yo'lchi ... yasadi.

qayiq
yo'lka
yo'lbars
yirtqich

yi, yo' harf birikmali so'zlarning tagiga chizing.

Urg' u. Urg' uli bo' g' in

31- mashq. O'qing.

Lola, olma, gilos, maktab, shaftoli, olxo'ri, bayroq, binafsha, piyola, qo'zichoq, yosti q, yalpiz, qumg'on.

Ajratib ko'rsatilgan bo'g'inlarni kuchliroq talaffuz bilan o'qing. So'zlarni bo'g'inlarga bo'lib ko'chiring.

32- mashq. Ajratilgan bo'g'inlarni boshqa bo'g'inlarga qaraganda kuchliroq talaffuz qilib o'qing.

Sening mehring ichdik biz,
Erkin qushdek uchdik biz,
Baxt-u iqbol quch**dik** biz,
Sen tufayli, **Vatanim**,
Sen mening **jon-u** tanim.

(O'. Rashid)

She'ni ko'chiring. Boshqa bo'g'inlarga qaraganda kuchliroq talaffuz qilinadigan bo'g'inlarning tagiga chizing.




So'zning bir bo'g'ini har vaqt kuchliroq (cho'ziqroq) talaffuz qilinadi. Shu bo'g'in **urg' uli bo' g' in** deyiladi. Yozuvda urg' u maxsus belgi (') bilan ifodalanadi. O'zbek tilida urg' u, asosan, so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi: *kitó b*, *kitoblár*, *paxtá*, *paxtazór*, *paxtazordá*.

33- mashq. Topishmoqlarni o'qing va javoblarini toping.



Kundalik tarix o'zi,
Har yerda uning so'zi.



Keragida suvga otasan,
Qimirlashin poylab yotasan.

Topishmoqlarni va ularning javoblarini yozing.
So'zlarning urg'uli bo'g'inlarini aniqlab, urg'u bel-
gisini (') qo'ying.

34- mashq. Urg'uli bo'g'inni to'g'ri talaffuz qilib
o'qing. Matnga sarlavha toping.

Dam olish kuni o'quvchilar sirkka bo-
rishdi. Katta tomosha bo'ldi. Ayiq o'ynadi.
Chiroyli otlar to'siqdan sakradi. Yolbarslar
olovli halqadan o'tdi. Qiziqchilar bolalarni
kuldirdilar. O'quvchilar sirkdan xursand bo'-
lib qaytdilar.

O'quvchilar qayerga bordilar? Ular nega xursand
bo'lib qaytdilar?

Savollarga javob bering. Javobingizni yozing.
So'zlardagi urg'uli bo'g'inni belgilang.

35- mashq. She'ni o'qing.

Ko'k yuzini **yashnatar**

Minglab **yulduzlar.**

Yer yuzini yashnatar.

O'g'il va qizlar.

Biz Yerning **yulduzi,**

Yurt o'g'il-qizi.

Biz bilan **porlagay**

Gul Vatan yuzi.

(M. A'zam)

Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni yozing, urg'uli bo'g'inlarni belgilang.

36- mashq. So'zlarni urg'uga rioya qilib o'qing.

Temir, temirchi, temirchilik, temirchilikka.

Paxta, paxtali, paxtakor, paxtazor, paxtazorda.

Ko'chiring, urg'uli bo'g'inni belgilang.

37- mashq. Uy hayvonlari, yovvoyi hayvonlar va parrandalarning nomini yozing.

Uy hayvonlari: sigir, ot, ..., ...,

Yovvoyi hayvonlar: ayiq, arslon, ...:

Parrandalar: tovuq, g'oz,,

Yozgan so'zlaringizdagi urg'uli bo'g'inlarni belgilang.

38- mashq. So'zlarni urg'uga rioya qilib o'qing.

Guldon, gulzor, guldor, gulbahor, gulbog'
guldasta, gulkaram, gultojixo'roz.

Ko'chiring. Urg'uli bo'g'inni belgilang.

Unli tovushlar va ularni yozuvda ifodalash

39- mashq. Tushirib qoldirilgan **i** va **u** harflarini qo'yib, so'zlarni o'qing.

Sig.r, chig.t, tut.n, bo'g'.n, turm.sh, uz.m, ur.g', ko'pr.k, bul.t, sov.n, yomg'.r.

Ko'chiring. Unli harflarning tagiga chizing.

40- mashq. Nuqtalar o'rniga **i** va **u** harflaridan mosini qo'yib o'qing.

Un.m, but.n, us.l, og'.z, muh.t, s.yrak.

Ko'chiring, unli harflarning tagiga chizing.

41- mashq. Harflarni yozing. Har bir harf tagiga shu harf ishtirok etgan ikkitadan so'z topib, ustunlarga bo'lib yozing.

a o i e u o'

Namuna: *ayvon, osmon, istak, eshik, ustun, o'rmon.*

Unli harflarning tagiga chizing.

42- mashq. Tushirib qoldirilgan **a** va **o** unlilaridan mosini qo'yib, so'zlarni o'qing va ko'chiring.

Agr.nom, d.vr, kil.metr, k.stum, n.vbatchi, k.mbayn, favv.ra.

Shu so'zlarning talaffuzi va yozilishini yodda tuting.

43- mashq. O'qing, **e** harfining o'qilishiga e'tibor bering.

Temirchi, yerto'la, neft, telegraf, sentabr, rezinka, behi, ekin, elak, etik, eshik.

Shu soʻzlarning yozilishini esda tuting.

44- mashq. Soʻzlarni boʻgʻinlab oʻqing.

Bulbul, tutun, butun, burun, burgut, chur, quduq, urugʻ, tuxum, chumchuq, uzum, mushuk.

Quyidagi chizmalarga mos soʻzlarni topib yozing.

--	--	--	--	--	--

,

--	--	--	--	--	--

,

--	--	--	--

Namuna:

b	u	l	b	u	l
---	---	---	---	---	---

,

t	u	t	u	n
---	---	---	---	---

,

u	r	u	gʻ
---	---	---	----

Birinchi boʻgʻinida **u** unlisi kelgan bunday soʻzlarning ikkinchi boʻgʻinida ham **u** harfi yozilishini yodda tuting.

45- mashq. Nuqtalar oʻrniga unli harflardan mosini qoʻyib oʻqing.

Huk.mat, un.m, kut.bxona, kost.m, .lgak, tux.m, b.ltur, uchq.n, toʻs.q, kum.sh, bul.t.

Koʻchiring. Unli harflarning tagiga chizing.

46- mashq. Nuqtalar oʻrniga unli harflardan mosini qoʻyib oʻqing.

.zum, .num, d.raza, .tak, koll.ksiya, sent.br, .sal, orz., .lam.

Koʻchiring. Shu soʻzlar ishtirokida ikkita gap tuzing.

47- mashq. Tushirib qoldirilgan unli harflarni qoʻyib, soʻzlarni oʻqing va yozing.



p.lla



.lon



s.gir



.tik



.shik



.chki

48- mashq. O'qing.

Behi, dengiz, dehqon, kema, mehnat, seshanba, terak, chelak, chevar, tekis.

So'zlarni alifbo tartibida ko'chiring, **e** harfining tagiga chizing.

49- mashq. O'qing.

Mehnatsevar o'quvchi, mehmondo'st xalq, rejali ish, sersuv shaftoli, sergak chegarachi, chevar qiz, keng dala, zehnli bola.

e unli tovushi ishtirok etgan so'zlarni ko'chiring. Shu so'zlardan qatnashtirib ikkita og'zaki gap tuzing.

50- mashq. O'qing.

Biz jismoniy tarbiya darsini sevamiz. Kecha yugurish bo'yicha mashg'ulot bo'ldi. O'qituvchi o'quvchilarga yugurish uchun

buyruq berdi. Zebo bilan Sevar, Durbek bilan Alisher yugurishdi. Marraga birinchi bo'lib Zebo va Durbek yetib kelishdi.

Savollarga javob bering. Javobingizni yozing, **e** harfli bo'g'inlarning tagiga chizing.

Zebo kim bilan yugurdi? Alisher-chi?
Marraga avval kimlar yetib kelishdi?



51- mashq. O'qing.

Yozuvchi, quyosh, osmon, odam, adolat, piyola, piyoz, yog'och, daryo, obod, aloqa, shudgor, savol.

Ko'chiring, **o** harfli bo'g'inlarning tagiga chizing.

52- mashq. Topishmoqlarni o'qing. Javobini toping va yozing.

Marjon-marjon yumaloq,
Yaproqlari shapaloq.
Qora, qizil, sariq, oq,
Yeb ko'rmasdan o'ylab boq.



Ikki yaproq bir tanda
Kezar yozda chamanda.

53- mashq. Berilgan so'zlarni bo'g'inlarga bo'lib yozing.

Daryo, quyon, piyola, yomg'ir, yog'och, yong'in, yostiqlik, ziyofat.

54- mashq. O'qing.

AYYOR QARG'ALAR

Kech kuz. Kun sovuq. Shudgorda qarg'alar qag'-qag'lashib uchib yurishardi. Patlari hur-paygan.


Qarg'alar daraxt tepasida qolgan yong'oqlarni cho'qishardi. Yong'oqlar asfaltga tushib, chaqilardi (yorilardi). Ular baravar mag'izga yopirilishardi. Yong'oqning mazasi qarg'alarga yoqib qolgan edi.

(Olmosdan.)

Savollarga javob bering. Javobingizni yozing.

1. Shudgorda nimalar uchib yurishardi?
2. Qarg'alar nima qilishardi?
3. Qarg'alarga nima yoqib qolgan edi?

55- mashq. Rasmlarni ko'ring. Gaplarni o'qing.



Tramvayga bir ayol chiqdi.
Ilyos tramvayda oyna oldida o'tirgan edi.
Ilyos o'rnidan turib, ayolga joy berdi.

Gaplarni rasmlar tartibida yozing. Bir gap bilan javob bering: Ilyos nima qildi?

56- mashq. Soʻzlarni boʻgʻinlab oʻqing.

Yukladi, yutuq, yulduzcha, yuvosh, yugan, buyuk, yumshoq, yurak, quyuc, **iyun, iyul, yuz, yuk.**

Koʻchiring. Ajratilgan soʻzlar nega boʻgʻin koʻchirish uchun boʻlinmaydi.

57- mashq. Berilgan boʻgʻinlardan bir-biriga mosini tanlab, soʻz tuzing.

buy-	-yuk
bu-	-ruq
yum-	-yuq
qu-	-shoq
yul-	-chi
ish-	-duz

Soʻzlarni yozing.

58- mashq. Boʻginlab oʻqing.

Yantoq, tuya, yaylov, yakshanba, yaltiroq, gʻoʻzapoya, hikoya, armiya, yagana, yaproq, yalpiz.

Koʻchiring, **y** harfli boʻgʻinlarning tagiga chizing.

59- mashq. Hikoyani oʻqing. Sarlavha toping.

Toshkent – juda qadimiy shahar. Bu shahardan savdo karvonlari oʻtgan. Oʻzaro savdo-sotiq rivojlangan. Bora-bora shahar sav-

do markaziga aylangan. Hozir Toshkent sanoati, iqtisodiyoti va madaniyati rivojlangan yirik va ko'rkam shaharlardan biri.

Savollarga javob bering. Javoblaringizni yozing.

1. Toshkent qanday shahar?
2. Qadimda bu yerda nima rivojlangan?
3. Hozirgi Toshkent haqida nimalarni bilasiz?

Jarangli va jarangsiz undosh tovushlar

1- mashq. Juftlab berilgan so'zlarni o'qing.

dil	–	til	jala	–	chala
gul	–	kul	zina	–	sina
joy	–	choy	g'or	–	qor

Ko'chiring. Juftlab berilgan so'zlar ma'nosini farqlayotgan harflarning tagiga chizing.

2- mashq. So'zlarni o'qing.

Is –, til –, pol –, kul –, qor –, choy –, sina –.

So'zlardagi jarangsiz undoshlar o'rniga ularning jarangli juftini qo'yib, yangi so'z tuzing va yozing.

N a m u n a: *is – iz, til – dil.*



Undosh tovushlar jarangli va jarangsiz bo'ladi.

Jarangli undoshlar: **b, d, g, j, l, m, n, r, v, y, z, g', ng.**

Jarangsiz undoshlar: **f, h, k, p, q, s, t, x, sh, ch.**

Jufti bor jarangli va jarangsiz undoshlar:

b	d	g	j	v	z	g'	
			/ \				
p	t	k	ch	sh	f	s	q

Jarangli tovushlar ovoz bilan, jarangsiz tovushlar ovozsiz talaffuz etiladi.

3- mashq. O'qing.

Kul, gul, kesmoq, pol, bol, kezmoq, bosh, tosh, jang, chang, g'or, qor.

So'zlarni juftlab ustun bo'yicha yozing. Jufti bor jarangli va jarangsiz undosh harflarning tagiga chizing.

Namuna: *bosh – tosh,*
gul – kul

4- mashq. She'ni o'qing va yozing.

Ikkinchida o'qir Rajab,
Ishlari-chi, qiziq, ajab.
Botinkasin iplari yo'q,
Ko'ringanga uradi do'q.

Qilib u to's-to'polon,
Yurar doim jig'ibiyron.

O'rtoqlari bo'lib bezor,

Derlar: – Rajab – tartibbuzar.

(M. Hamidullayeva)

Jarangli undosh tovushni bildirgan harfning tagiga chizing.

5- mashq. Tushirib qoldirilgan harflarni qo'yib, so'zlarni yozing.

Tana.fus, maso.a, na.is, sin., pu.ak, inso.,
shar., si.at, .arzand, .artuk, .il.

f tovushini to'g'ri va aniq talaffuz qiling.

6- mashq. **f** tovushini to'g'ri va aniq talaffuz etib,
so'zlarni o'qing.

Fasl, favvora, farq, fe'l, farzand, fabrika,
futbol, ferma, taklif, nafas, asfalt, shifokor,
fermer, fonar.

So'zlarni ko'chiring, **f** undoshining aytilishi va yozi-
lishini tushuntiring, tagiga chizing.

7- mashq. Chap tomonda berilgan bo'g'inlarga
o'ng tomondagi bo'g'inlarni qo'shib so'z tuzing va
yozing.

far		zand, mon, yod
fa		zo, ner, qat

So'zlardagi **f** tovushining aytilishi va yozilishiga
e'tibor bering.

8- mashq. Nuqtalar o'rniga jarangsiz undosh harfni
qo'yib, so'zlarni ko'chiring.

Ha.ta	o.tob	atro.
as.alt	sha.toli	.abrika
itti.oq	.erma	qul.
bina.sha	.oyda	.arzand

Jarangsiz **f** undosh harfining tagiga chizing.

9- mashq. Nuqtalar o'rniga jarangli undosh harfni
qoyib, so'zlarni ko'chiring.

A.tobus, ga.har, de.or, palo., qo.un, par.oz,
na.bat, do.uchcha, bu.i, a.lod, a.toruchka,
pay.andchi.

v harfining aytilishi va yozilishini tushuntiring. Jarangli undosh tovushni bildirgan **v** harfining tagiga chizing.

10- mashq. Tushirib qoldirilgan **v** va **f** undosh harflaridan mosini qo'yib, so'zlarni ko'chiring.

.aza	a.loq	nash.ati
.azo	as.alt	na.osat
.agon	a.tobus	da.lat
.aner	o.tob	pu.ak

Jarangli undosh tovushni bildirgan harflarning tagiga chizing.

11- mashq. Nuqtalar o'rniga **v**, **p**, **f** undosh harflaridan mosini qo'yib ko'chiring.

Shi.er	sha.toli
sho'r.a	cha.andoz
shiy.on	chu.alchang
chuch.ara	.alos

Jarangli undosh tovushni bildirgan harflarning tagiga chizing.

12- mashq. O'qing.

Shifoxona, oftob, daftar, tartib, maqsad, kitob, sabab, qand, talab.

Ko'chiring. Aytilishi va yozilishida farq qiladigan undoshlarning tagiga chizing.

13- mashq. **b**, **p**, **d**, **t** harflarini qatnashtirib gaplar tuzing. Tuzgan gaplaringizni yozing, jarangli va jarangsiz undosh tovushlarni bildirgan harflarning tagiga chizing.

14- mashq. Nuqtalar o'rniga **g** yoki **k** harflaridan mosini qo'yib, so'zlarni yozing.

.ul	a.ula	beshi.
.ul	bar.	ela.
.ashta	ho'.iz	mu.ofot
.ilam	i.na	ti.an

Jarangli undosh tagiga bir, jarangsiz undosh tagiga ikki chiziq chizing.

15- mashq. O'qing.

DONISHMAND

Qadim zamonda bir chol bor edi. Uning o'g'illari ko'p edi. Bir kuni chol o'g'illarini oldiga chaqirdi.

Katta o'g'lining qo'liga bitta novda berdi. Uni sindirishni buyurdi. O'g'il novdani sindirib, ikki bo'lak qildi.

Chol bir necha novdani birga bog'ladi. Ularni ham sindirishni buyurdi. O'g'il novdalarni sindirish uchun ko'p urindi. Ammo novdalarni sindira olmadi. Shunda chol o'g'illariga: – Agar sizlar ham birlashib, ahil bo'lib yashasanglar, sizlarni hech qanday kuch yengolmaydi, – debdi.

Jarangli va jarangsiz undosh tovushlarni bildirgan harflarning tagiga chizing.

16- mashq. Bo'g'inlarni qo'shib, so'zlar yasang va ularning ma'nolarini tushuntiring.

ku  rak
rash
mush

gu  nafsha
voh
noh

Tuzgan soʻzlaringizni yozing, jarangli undosh tagiga bir, jarangsiz undosh tagiga ikki chiziq chizing.

17- mashq. Tushirib qoldirilgan undosh harflarni qoʻyib, sheʼrni oʻqing.

Daraxtim .umush oppoq,
.ullari bodroq-bodroq.
Ber.an .abi koʻ. boʻyoq
Bar.i yam-yashil har choq.


Mevasi qizil munchoq,
Oq, qizil boʻlar qandoq?
Qiziq-a, nega bundoq,
Daraxt qiziq topishmoq.

Sheʼrning toʻrt qatorini koʻchiring. **k**, **g** harflarining tagiga chizing.

18- mashq. Oʻqing.

MAKTAB USTAXONASI

Maktabimizda duradgorlik va tikuvchilik ustaxonalari bor. Oʻgʻil bolalar duradgorlik ustaxonasida arralash va randalash ishlari-ni oʻrganadilar. Qizlar esa tikuvchilik ustaxo-nasida tikish va bichishni oʻrganadilar. Oʻgʻil bolalar taxtadan stol, stul yasashga, qiz-lar esa turli kiyimlar tikishga juda qiziqadilar.



Jarangsiz **t** va jarangli **d** undosh tovushlari bo'lgan so'zlarni ko'chiring, **t** va **d** harflari tagiga chizing.

19- mashq. Jarangli va jarangsiz undoshli so'zlar ishtirokida to'rtta gap tuzib yozing. Jarangli undosh tagiga bitta, jarangsiz undosh tagiga ikkita chiziq chizing.

20- mashq. Berilgan bo'g'inlardan so'z tuzing.

Namuna: *dumaloq.*

ta		du		na		ma		loq
da		tu		la		tun		

Nechta so'z tuzdingiz? Tuzgan so'zlaringizni yozing, **t** va **d** harflari tagiga chizing.

21- mashq. Nuqtalar o'rniga **t** yoki **d** harflaridan mosini qo'yib, so'zlarni ko'chiring.

.ish		pa.ir		su.
.ush		a.ir		di.
.un		bi.irmoq		navba.
.um		bil.irmoq		oma.

Jarangli undosh tagiga bir, jarangsiz undosh tagiga ikki chiziq chizing.

22- mashq. Soʻzlarni oʻqing.

tush	–	dush	sut	–	sud
atir	–	adir	qat	–	qad

Shu soʻzlar ishtirokida gaplar tuzib yozing. Jarangli undosh tagiga bir, jarangsiz undosh tagiga ikki chiziq chizing.

23- mashq. Sheʼrni oʻqing, koʻchiring.

QUYONCHA QOʻSHIGʻI

Laqillatib och boʻrini
Rosa qilganman kulgi.
Meni hatto alday olmas
Ayyor yolgʻonchi tulki.

Qoʻrqoq degan nom yarashmas,
Endi men qoʻrqmas, jasur.
Hap senimi, laqma boʻri,
Bir boplayin, shoshmay tur.

(H. Qayumov)

Jarangsiz undoshlarning tagiga chizing.

Siz quyoncha haqidagi qaysi multfilmlarni koʻrgansiz?

24- mashq. Nuqtalar oʻrniga **s** yoki **z** harflaridan mosini qoʻyib soʻzlarni oʻqing.

.iyoh	dar.	o.moq
.iyon	dar.	o.moq

Berilgan soʻzlar ishtirokida gaplar tuzing. **s** va **z** harfli soʻzlarning tagiga chizing.

25- mashq. Bo'g'inlardan so'zlar tuzing.

sa — lom
riq
vol
odat

za — mon
far
min
rur

si — mob
nov
fat
los

zi — na
ra
rak
rapcha

Tuzgan so'zlaringizni ustunlarga bo'lib yozing. Jarangli undosh tagiga bir, jarangsiz undosh tagiga ikki chiziq chizing.

26- mashq. 4 ta gap tuzib yozing. So'zlardagi jarangli undosh tagiga bir, jarangsiz undosh tagiga ikki chiziq chizing.

27- mashq. Nuqtalar o'rniga berilgan so'zlardan mosini qo'yib, gaplarni o'qing va yozing. Jarangli va jarangsiz undoshlarni ajrating.

1. Zokirjon ... yoshda. 2. Dars oxirida o'qituvchi doskaga ... yozdi. 3. Zulxumor ... chaladi. 4. Avazning akasi

Qo'yish uchun so'zlar: *chavandoz, o'n, uy vazifasini, skripka.*

28- mashq. O'qing.

Saodat soatni soatsozga sozlatdi.
Ilon izidan ilon izladim.

Tez aytishlarni ko'chiring. Jarangli undosh tagiga bir, jarangsiz undosh tagiga ikki chiziq chizing.

29- mashq. Soʻzlarni oʻqing.

Anjir, shaftoli, joʻja, jiyda, shinni, shisha, marjon, makkajoʻxori, majlis, maktabdosh, mashq, mashhur, mashgʻulot, jasorat.

Avval **sh** tovushi ishtirok etgan soʻzlarni, soʻng **j** tovushli soʻzlarni ikki ustunga boʻlib koʻchiring. Jarangli undosh tagiga bir, jarangsiz undosh tagiga ikki chiziq chizing.

30- mashq. Soʻzlarni oʻqing.

Shamol – jamol, shim – sim, shoyi – joyi.

Shu soʻzlardan qatnashtirib gap tuzing va yozing. Jarangli undosh tagiga bir, jarangsiz undosh tagiga ikki chiziq chizing.

31- mashq. Nuqtalar oʻrniga **sh** yoki **j** harflaridan mosini qoʻyib, soʻzlarni koʻchiring.

Binaf.a, .ahar, .amol, tovu., tomo.a, .ahon, ma.lis, .akar, .ang, .iyda.

Jarangli undoshlar tagiga bir, jarangsiz undoshlar tagiga ikki chiziq chizing.

32- mashq. Nuqtalar oʻrniga **sh** yoki **j** harflaridan mosini qoʻyib, gaplarni koʻchiring.

1. B – p, v – f, g – k, d – t, z – s, j – sh harflari .ufti bor .arangli va .arangsiz undo.lardir. 2. Gʻi.t – qurili. materialidir. 3. Yax.i soʻz – boldan .irin. 4. Joʻ.alar .oʻxori ekilgan .oyga oʻtib keti.ibdi.

Jarangli undosh tagiga bir, jarangsiz undosh tagiga ikki chiziq chizing.

33- mashq. Soʻzlarni oʻqing.

chinni – shinni	chala – jala
shim – jim	jim – chim
chang – jang	kul – gul

Bu soʻzlar nimasi bilan oʻxshash va nimasi bilan farq qiladi? Ularni koʻchiring. Jarangli undosh tagiga bir, jarangsiz undosh tagiga ikki chiziq chizing.

34- mashq. Nuqtalar oʻrniga **q** yoki **gʻ** harflaridan mosini qoʻyib, soʻzlarni koʻchiring.

.ovun, qar.a, .amchi, .aychi, .oʻza, .uncha, qarmo., yo., shol.om, .isht, qoʻzi.orin, qurba.a, .altak.

gʻ harfi tagiga bir, **q** harfi tagiga ikki chiziq chizing.

35- mashq. Soʻzlarni oʻqing.

Qolip – gʻolib, qish – gʻisht, kulcha – gʻuncha, Gʻani – qani.

Soʻzlarning oʻxshash va farq qiluvchi tomonlarini tushuntiring. Shu soʻzlar ishtirokida gaplar tuzing.

36- mashq. Nuqtalar oʻrniga tegishli harflarni qoʻyib, hikoyani oʻqing.

MAKTAB BOGʻI

Maktabimizning katta va koʻrkam boʻi bor. Bogʻda olma, sha.toli, qara.ay, qayra.och, terak va bosh.a daraxtlar oʻsadi.

Biz daraxtlar soyasida o'ynaymiz. O'rindiqalarda o'tirib, hordiq chiqaramiz.

Ko'chiring, jarangli undosh tagiga bir, jarangsiz undosh tagiga ikki chiziq chizing.

37- mashq. Tushirilgan harflarni qo'yib, she'rni ko'chiring.

Bir tomoni keng o'tlo.,
Bir tomoni .orli to. .
Go'zal va nurli makon,
Mening aziz qishloim

(S. Barnoyev)

She'rdagi jarangli undoshlar tagiga bir, jarangsiz undoshlar tagiga ikki chiziq chizing.

38- mashq. Nuqtalar o'rniga quyida berilgan so'zlardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. Nonushta uchun ... tayyorladik. 2. Navbatchi bolalar issiqqina ... olib kelishdi. 3. Tong shamoli 4. O'tmas pichoq qo'lni 5. Farhod marraga .. keldi. 6. Pillaning har bir tolasi ... bilan teng.

Qo'yish uchun so'zlar: *oltin, oldin, kesar, kezar, choy, joy.*

Jarangli undosh tagiga bir, jarangsiz undosh tagiga ikki chiziq chizing.

39- mashq. O'qing.

g'aram – qaram
guldon – kuldon
darz – dars

jim – chim
barcha – parcha
dog' – tog'

Juftlab berilgan soʻzlarni koʻchiring, maʼnosini tushuntiring. Jarangli undosh tagiga bir, jarangsiz undosh tagiga ikki chiziq chizing.

Soʻz oxirida kelgan jarangli va jarangsiz undoshlar

40- mashq. *Oftob, kabob, kitob, tuz, qand* soʻzlarini qatnashtirib gaplar tuzing. Tuzgan gaplaringizni daftaringizga yozing.



Talaffuzda ayrim soʻzlarning oxirida kelgan jarangli undosh oʻrniga uning jarangsiz jufti eshitiladi.

Qaysi harfni yozish kerakligini aniqlash uchun shu soʻz oxiriga unli harf qoʻshib oʻqiladi: *javob – javobi, yalpiz – yalpizi, maktab – maktabi, odob – odobi.*

41- mashq. Nuqtalar oʻrniga berilgan soʻzlardan mosini qoʻyib, gaplarni koʻchiring.

1. ... bola – elga manzur. 2. ... salom berishni unutmadi. 3. Koʻm-koʻk ... asta toʻlqinlanadi. 4. ... maydonda bilinar. 5. ... chiroyli bezatildi.

Qoʻyish uchun soʻzlar: *mard, klub, odobli, ertalab, dengiz.*

Jarangli va jarangsiz undoshlarning aytilishi va yozilishini tushuntiring.

42- mashq. Soʻzlarning oxiridagi unli harfni tushirib oʻqing va yozing.

Parvozi, oftobi, javobi, kabobi, mag‘zi, ahdi, yulduzi, odobi, kitobi, tartibi, avlodi.

Tekshiring. So‘z oxiridagi undosh harflar talaffuziga e‘tibor bering.

43- mashq. Nuqtalar o‘rniga tushirib qoldirilgan harflarni qo‘yib, so‘zlarni ko‘chiring, namunadagidek tekshiring.

Namuna: *maqсад – maqsadi.*

Maqsa., umi., savo., odo., poli., makta. .

Jarangli undosh tovushni ifodalagan harfning tagiga chizing.

44- mashq. O‘qing.

Baxt, odat, umid, po‘lat, rohat, mard, kvadrat, qand, murod, omad, mart, ajdod.

Birinchi ustunga **t** talaffuz qilinib, **t** yoziladigan so‘zlarni, ikkinchi ustunga **t** talaffuz qilinib, **d** yoziladigan so‘zlarni yozing.

45- mashq. Nuqtalar o‘rniga **t** yoki **d** undoshlaridan mosini qo‘yib, so‘zlarni ko‘chiring.

Xizma., avlo., mar., mar., ol.in, ol.in, muro., maqsa., bol.a, xursan., sabzavo., sho.lik, pa.nis, pa.ir, a.ir.

Aytilishida tushib qoladigan undoshlarning yozilishi

46- mashq. Berilgan so‘zlarni yozing. Ularning aytilishi va yozilishidagi farqni ayting.

Go'sht, g'isht, kaft, baland, daraxt, rost.

Aytilishida tushib qoladigan undoshlarning tagiga chizing.



Ba'zi bir so'zlar oxiridagi undosh tovush aytilishida tushib qolsa ham, yozuvda saqlanadi. Masalan: *go'sht*, *g'isht*, *rost*, *xursand*.

47- mashq. Nuqtalar o'rniga aytilishida tushib qoladigan *t*, *d* undoshlaridan mosini qo'yib, so'zlarni ko'chiring.

Darax., payvan., farzan., balan., juf., xursan., do's., Samarqan., Toshken..

Aytilishida tushib qoladigan undoshlarning tagiga chizing.

48- mashq. Nuqtalar o'rniga **t** yoki **d** harflaridan mosini qo'yib ko'chiring.

Qan., to'r., umi., ko'cha., obo., balan..

Jarangli undosh tagiga bir, jarangsiz undosh tagiga ikki chiziq chizing. Shu so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.

Ketma-ket kelgan bir xil undoshli so'zlarning yozilishi

49- mashq. She'rni o'qing va yozing.

TISHI SINMASIN

Makka donni oyisi:
«Tovuqlarga ber», desa,

Nodira der: – Qattiq-ku,
Tishi sinmasmi yesa?

(M. Razzoqov)

Ko‘chiring, ketma-ket kelgan bir xil undoshli so‘zlarning tagiga chizing.

50- mashq. So‘zlarni diqqat bilan o‘qing.

qatiq – qattiq
soda – sodda
yala – yalla
tila – tilla

Shu so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing va yozing. Ketma-ket kelgan bir xil undoshli so‘zlarning tagiga chizing.

51- mashq. O‘qing.

Trolleybus, pilla, arra, vanna, antenna, do‘ppi, varrak, g‘alla, dovuchcha, telegramma.

So‘zlarni bo‘g‘in ko‘chirish qoidasiga ko‘ra bo‘g‘inlarga bo‘lib yozing.

52- mashq. Nuqtalar o‘rniga ketma-ket kelgan bir xil undoshlarni qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1. Matematikadan mura..ab masalani yechdik. 2. Momaqaldiroq qa..iq gumburladi. 3. Ka..a tanaffusda hovlida o‘y-naymiz. 4. Pi..adan mo‘l hosil olindi.

Ketma-ket kelgan bir xil undoshli so‘zlarning tagiga chizing.

53- mashq. She'ni o'qing.

OG'RIB QOLDI

Shirinlikka o'ch
Ukam Qo'chqorning,
Og'rib qoldi-ku
Qo'qqisdan qorni.

Keyin vrachga
Boramiz, – desam,
– Sog'ayaman, – der,
Murabbo yesam.

(A. Akbar)

Ketma-ket kelgan bir xil undoshli so'zlarni aniqlang va bo'g'in ko'chirish qoidasiga ko'ra bo'laklarga bo'lib yozing.



Ketma-ket kelgan bir xil undoshli so'zlarni bir yo'ldan ikkinchi yo'lga ko'chirganda, undoshlardan biri oldingi yo'lda qoldirilib, ikkinchisi keyingi yo'lga o'tkaziladi: *pil-la, til-la, zar-ra, trolleybus, g'al-la, muvaf-faqiyat.*

54- mashq. So'zlarni bo'g'inlarga bo'lib o'qing va yozing.

Makkajo'xori, omma, novvot, tonna, chillaki, xokkey, novvoy, tennis, murakkab, quvvat, sodda, dovuchcha, issiq, oppoq, labbay, marra, jizza, hissa, g'alla.

55- mashq. 54- mashqdagi soʻzlarni quyidagi tartibda kochiring:

ll : chillaki, ...	kk : makkajoʻxori, ...
mm : ...	nn : ...
vv : ...	ss : ...

56- mashq. Tushirib qoldirilgan **d**, **b**, **gʻ** harflaridan mosini qoʻyib, gaplarni koʻchiring.

Tong otdi. Quyosh to.lar orqasidan koʻtarildi. Muro. oʻrnidan turdi. Muzdek suvda yaxshila. yuvindi. Kiyimlarini kiydi. Choy ich.i va makta.ga ketdi. Makta. hovlisida oʻrtoqlarini uchratdi.

Aytilishi va yozilishida farq qiluvchi undosh harflarning tagiga chizing.

57- mashq. Tushirib qoldirilgan **b**, **d**, **gʻ** harflaridan mosini qoʻyib, gaplarni koʻchiring.

1. Feruza kutu.xonadan kito. oldi. 2. Sayohatchilar balan. to.larga chiqdilar. 3. Oquvchi yaxshi javo. berdi. 4. Bolalar makta. may.onchasida oʻynadilar.

Jarangli undosh tagiga bir, jarangsiz undosh tagiga ikki chiziq chizing.

58- mashq. Tushirib qoldirilgan **t** yoki **d** harflaridan mosini qoʻyib, gaplarni koʻchiring.

1. Sherma. bobo mohir dura.gor. 2. Talʼa. intizomli bola. 3. Erma. aka usta haydovchi. 4. Xolma. aka hayvono. bogʻida ishlaydi.

Kim? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarning tagiga chizing.

59- mashq. **p** va **f** undoshlarining o'qilishiga diqqat qilib, so'zlarni ko'chiring.

Popuk, parovoz, harf, fasl, afsona, afzal, faqat, fabrika, fil, afsus, shaftoli, telefon, sinf, insof, daftar, kaptar, binafsha, mukofot, pomidor, peshin, poyafzal, polvon.

p va **f** undoshlarining tagiga chizing.

60- mashq. Rasmdagi narsalarning nomini to'g'ri ayting.



f harfli narsalarning nomini yozing. **f** harfi tagiga chizing.

61- mashq. Rasmlardagi narsalar nomini bildirgan so'zlarni qo'yib gaplarni ko'chiring.

Farhod kitob va
ga soldi.



Tikuvchilik darsida qizlar o'zlariga
tikishdi.



Tanaffus vaqtida o'quvchilar
maktab hovlisidagi atrofida dam
olishadi.



f, p harflarining tagiga chizing.

62- mashq. **z, s** undoshlarining aytilishi va yozi-
lishiga diqqat qilib, so'zlarni ko'chiring.

Gilos, olmos, parvoz, parovoz, parhez,
mayiz, tuz, kuz, savat, sabzavot.

Jarangli undosh tagiga bir, jarangsiz undosh tagi-
ga ikki chiziq chizing.

63- mashq. O'qing.

Xaridor, xabar, xavfsizlik, havas, havo,
hadya, xazina, xayr, xalat, hayot, hajviya,
hazil, hayvon, haykal, xalta, xamir, xalq,
harakat, xatosiz, xizmat, xo'roz, hammom,
ho'l, husn, mehribon, mehnat, ohak, suh-
bat, hushtak, iftixor, olxo'ri, shifobaxsh,
sehrigar, hasharot.

Avval **h** harfli, soʻngra **x** harfli soʻzlarni koʻchiring. Shu soʻzlarning yozilishini esda saqlang.

64- mashq. Rasmlardagi narsalar nomini bildirgan soʻzlarni qoʻyib, gaplarni koʻchiring.

1. Otam bahorda



koʻchatini
oʻtqazmoqchi.

2.



juda foydali,
shifobaxsh meva.

3. Biz oshga



solib
damladik.

h va **x** undosh harflari tagiga chizing.

65- mashq. Nuqtalar oʻrniga **h** yoki **x** harflaridan mosini qoʻyib, soʻzlarni koʻchiring.

Noʻ.at, me.nat, ol.oʻri, o.ak, roʻy.at, su.bat,
.at, .ato, .arf, .ovli, me.ribon, .irmon, .abar,
.andalak, ifti.or.

h va **x** harflarining tagiga chizing.

SO‘Z TARKIBI

So‘zning o‘zagi va o‘zakdosh so‘zlar

1- mashq. So‘zlarni o‘qing.

Olma – olmazor, bog‘ – bog‘cha – bog‘bon – bog‘dorchilik, gul – gulchi – gulzor – guldon – guldor, suv – suvli – suvsiz – suvchi.

O‘zakdosh so‘zlarni ustunlarga bo‘lib yozing.
Bu so‘zlar nimasi bilan bir-biriga o‘xshaydi?



O‘zaklari bir xil bo‘lgan so‘zlar o‘zakdosh so‘zlar deyiladi: *sinf – sinfdosh, do‘st – do‘stlik, gul – gulchi – gulzor – guldon*. O‘zakdosh so‘zlarning umumiy qismi **o‘zak** deb nomlanadi. O‘zakdosh so‘zlarning o‘zaklari bir xil yoziladi va quyidagicha belgilanadi:

olma – *olmali* – *olmazor*.

2- mashq. O‘qing.

Ish, choy, paxta, ishla, paxtakor, ishchi, choynak, ishsiz, paxtazor, paxtachilik, choyxo‘r, ishchan.

O‘zaklari bir xil bo‘lgan so‘zlarni ustunlarga bo‘lib yozing. O‘zakni namunadagidek belgilang.

Namuna: $\overset{\frown}{choy}$
 $\overset{\frown}{choynak}$
 $\overset{\frown}{choyxor}$

3- mashq. O'qing.

GULCHILAR

Maktabimizning katta hovlisi bor. O'quvchilar u yerni chiroyli gulzor qilishgan. Gullarni o'quvchilar parvarish qiladilar. Ular gulchilik bilan shug'ullanishni sevadilar.

Ko'chiring. O'zakdosh so'zlardagi o'zakni belgilang.

4- mashq. Maqollarni o'qing.

Ish ishtaha ochar,
Dangasa ishdan qochar.

Kitob **bilim** bulog'i,
O'quvchining o'rtog'i.

Ko'chiring, ajratib ko'rsatilgan so'zlarga o'zakdosh so'zlar toping va yozing.

5- mashq. O'qing.

Tugun, gul, terimchi, tugmoq, bosh, ter, gulzor, terim, boshla, tugma, gulchi, gullamoq, boshliq.

O'zakdosh so'zlarni ajratib, alohida yozing, o'zakni belgilang.

6- mashq. *Non* so'ziga o'zakdosh so'zlar topib yozing. O'zakni belgilang.

7- mashq. Gaplarni o'qing.

1. Mening otam **mehnat** qahramoni.
2. Onam **paxta** zavodida ishlaydi.
3. Dalalar ko'm-ko'k **o't** bilan qoplandi.
4. Ilm – aql chirog'i.
5. **Do'st** tanlashda adashma.

Ko'chiring, ajratib ko'rsatilgan so'zlarga o'zakdosh so'zlar topib yozing.

8- mashq. She'rni o'qing.

ODOB

Odob so'zi bir so'z, lekin
Aytaversak turi ko'p.
Katta bir so'z deganda,
Darrov desang: –
«Labbay, xo'p».

Bajo qilsang sen ularning
Aytganlarin shu zamon,
Shuning o'zi bir odobdir,
Odobsizlik – bu yomon.

(T. Yo'ldosh)

Ko'chiring, o'zakdosh so'zlarning tagiga chizing.

9- mashq. O'qing.

Soat, paxta, sinf, paxtazor, soatsoz, qalamdon, sinfdosh, soatli, qalamtarosh, paxtakor, qalam.

O'zakdosh so'zlarni ustunlarga ajratib yozing, o'zakni belgilang.

10- mashq. Tushirib qoldirilgan *ish* o‘zakdosh so‘zni qo‘yib, matnni ko‘chiring.

Mening eng katta akam zavodda Sinfdoshlarimiz bilan akam ... zavodga bordik. U yerda ... mehnati bilan tanishdik. Ishchilarning o‘z ... mohirligi bizni qoyil qoldirdi.

Foydalanish uchun so‘zlar: ish, ishchilar, ishlaydigan, ishlaydi.

O‘zakdosh so‘zlarni ajratib yozing va o‘zakni belgilang.

11- mashq. O‘qing.

Bahor keldi. Ko‘k maysalar unib chiqdi. Ko‘klamgi dala ishlari boshlanib ketdi. Ko‘kalamzor joylarda qo‘zichoqlar ko‘katlardan yeb, yayrab yurishibdi.

Ko‘chiring, o‘zakdosh so‘zlarning tagiga chizing, o‘zakni belgilang.

12- mashq. O‘qing.

Bog‘cha, asal, bog‘, terim, bog‘dorchilik, asalari, ter, asalarichilik, terimchi, bog‘bon.

O‘zakdosh so‘zlarni ustunlarga ajratib yozing, o‘zakni belgilang.

13- mashq. O‘qing.

Tez, shoshiling, tezlik.

Bog‘, daraxtzor, bog‘dorchilik.

Kasal, bemor, kasalxona.

To‘g‘ri, ravon, to‘g‘rilik.

Har bir qatordagi o'zakkdosh so'zlarni ko'chiring. O'zakni belgilang.

14- mashq. *Suv, barg, ish, gul, tuz* so'zlariga o'zakkdosh so'zlar tanlang. O'zakni belgilang.

Har bir so'zdagi o'zakning yozilishini solishtiring.

Namuna: *suv*, *suvchi*, *suvli*, *suvsiz*, *suvla*, *suvdon*.

15- mashq. Berilgan so'zlarga o'zakkdosh so'zlar tanlang va yozing.

Namuna: *tog'ora* – *tog'oracha*.

tog'ora	tikan
asal	mehnat
toy	bog'
qo'zi	chiz

O'zakni belgilang.

16- mashq. Berilgan so'zlarga o'zakkdosh so'zlar tanlang va yozing.

aql	o'rmon	qor	maza
gul	shira	ko'z	qand

O'zakni belgilang.

17- mashq. O'qing.

GULDASTA

Gulshan guldasta yasashga juda usta. U gullarni uzun-uzun qilib qirqdi. Oq, qizil gullar orasiga pushti g'uncha va yashil barglar qo'shdi. Guldastani chiroyli qilib

qog'ozga o'radi. Uni o'qituvchisiga taqdim etdi.

Matnni ko'chiring, o'zakdosh so'zlarning tagiga chizing.

18- mashq. O'qing.

O't, tuz, o'tloq, tuzla, o'toq, tuzli, o'tlamoq, tuzlamoq.

O'zakdosh so'zlarni ko'chiring, *tuz* o'zakli so'zlardan gaplar tuzing. O'zakni belgilang.

19- mashq. O'qing.

Ter, ko'k, yoz, temir, ko'klam, yozuv, temirchi, terim, yozuvchi, temirchilik, ko'kat, terimchi.

O'zakdosh so'zlarni ustun shaklida yozing. *Temir* o'zakli so'zlarni qatnashtirib gaplar tuzing. O'zakni belgilang.

20- mashq. *Mashina, ish, ter, bil, tik* so'zlarining har biriga o'zakdosh so'z tanlang va yozing. O'zakni belgilang.

21- mashq. O'qing.

1. Qunt bilan o'rgan hunar. 2. Hunarli kishi xor bo'lmas. 3. Suv zar, suvchi zargar. 4. Aqlli o'zini, aqlsiz do'stini ayblar. 5. Ilmsiz bir yashar, ilimli ming yashar.

Gaplarning ma'nosini tushuntiring. Ko'chiring, o'zakdosh so'zlarning tagiga chizing, o'zakni belgilang.

Soʻz yasovchi qoʻshimchalar

22- mashq. Oʻqing.

suv	ov	meva	kuch
suvchi	ovchi	mevali	kuchli
suvli	ovla	mevasiz	kuchsiz

Har bir soʻzning oʻzagini toping, uning oʻzagi-ga qoʻshilgan qismni aniqlang. Shu soʻzlardagi **-chi**, **-la**, **-li**, **-siz** soʻz yasovchi qoʻshimchalar ekani-ni esda tuting.

23- mashq. Soʻzlarni oʻqing. Koʻchiring.

ish	tuz	gul
ishchi	tuzli	gulli
ishla	tuzsiz	gulla

Har bir soʻzning oʻzagini toping. Soʻz yasovchi qoʻshimchalarning tagiga chizing.



Soʻz yasovchi qoʻshimchalar oʻzakka qoʻshiladi va yangi soʻz yasaydi:

ishchi – *ish* (oʻzak), **-chi** (soʻz yasovchi qoʻshimcha)

ishla – *ish* (oʻzak), **-la** (soʻz yasovchi qoʻshimcha)

tuzli – *tuz* (oʻzak), **-li** (soʻz yasovchi qoʻshimcha)

tuzsiz – *tuz* (oʻzak), **-siz** (soʻz yasovchi qoʻshimcha)

-chi, **-la**, **-li**, **-siz** soʻz yasovchi qoʻshimchalardir. Bunday qoʻshimchalar bilan yasalgan yangi soʻzlar **yasama**

soʻzlar deyiladi. Yasama soʻzning oʻzak va qoʻshimchasi quyidagicha belgilanadi: *ishchi*, *ishla*, *tuzli*, *tuzsiz*.

24- mashq. *Chegara, gul* soʻzlariga **-chi, -la, -siz** soʻz yasovchi qoʻshimchalarini qoʻshib, yangi soʻz yasang va yozing. Soʻz yasovchi qoʻshimchalarni namunadagidek belgilang.

Namuna: *chegara^{la}, chegarachi, chegarasiz*.

25- mashq. Nuqtalar oʻrniga **-chi, -la, -li, -siz** soʻz yasovchi qoʻshimchalaridan mosini qoʻyib, gaplarni koʻchiring.

1. Oz soʻz..., koʻp oʻy... 2. Aʻlo... oʻquvchilar boshqalarga namunadirlar. 3. Ilgʻor ish... zavodning faxridir. 4. Suv... hayot boʻlmas.

Soʻz yasovchi qoʻshimchalarni belgilang.

26- mashq. Oʻqing. Nuqtalar oʻrniga soʻz yasovchi qoʻshimchalardan mosini qoʻyib koʻchiring.

Gul..., gul..., gul..., gul... .

Temir..., temir..., temir... .

Suv..., suv..., suv..., suv... .

Soʻz yasovchi qoʻshimchalarni belgilang.

27- mashq. Nuqtalar oʻrniga **-chi, -la, -li, -siz** qoʻshimchalaridan mosini qoʻyib, gaplarni koʻchiring.

1. Kuch... shamol esdi. 2. Suv... ekinlarga suv quydi. 3. Gul... chaman boʻlmas. 4. Bilim... kishi xor boʻlmas.

O'zak va so'z yasovchi qo'shimchalarni namuna-
dagidek belgilang.

Namuna: *kuchli*.

28- mashq. O'qing.

Mashinachi, kombaynchi, terimchi.

Boshla, sozla, ishla.

Suvli, kuchli, aqlli.

O'zak bilan qo'shimcha orasiga chiziqcha qo'yib
ko'chiring. O'zak va so'z yasovchi qo'shimchalarni
belgilang.

Namuna: *suv-li, kuch-li...*

29- mashq. *Intizom, bosh, qayiq, danak* so'zlari-
ga so'z yasovchi qo'shimchalardan mosini qo'shib,
yangi so'z hosil qiling. Yasagan so'zlaringiz ishtiroki-
da uchta gap tuzing va yozing.

30- mashq. O'qing.

1. Ishchi – sharafli, ulug' kasb. 2. Ko'p
o'yla, oz so'zla. 3. Ota-onangni qadrla.
4. Ilg'or tikuvchi fabrikaning faxridir. 5. Qo'l-
siz, oyoqsiz uy poylar.

Ko'chiring, yasama so'zlardagi o'zak va so'z yasov-
chi qo'shimchalarni belgilang.

31- mashq. O'qing.

Kutubxona, bo'yoqchi, kutubxonachi, o't,
bo'yoqli, o'tsiz, bo'yoq, o'tli, bo'yoqsiz.

Yasama so'zlarning o'zagi va qo'shimchasi orasi-
ga chiziqcha qo'yib ko'chiring.

32- mashq. *Bogʻ, sut, ish, ov* soʻzlariga soʻz yasovchi qoʻshimchalardan mosini qoʻshib, yangi soʻz hosil qiling va yozing. Oʻzak va soʻz yasovchi qoʻshimchalarni belgilang.

33- mashq. Nuqtalar oʻrniga soʻz yasovchi qoʻshimchalardan mosini qoʻyib, gaplarni koʻchiring.

Oʻquv... kitob oʻqiyapti. Ish... zavodda ishlaydi. Suv... hayot yoʻq. Mazmun... hikoya tingladik. Bogʻimizda jiyda gul...di.


Yasama soʻzlardagi oʻzak va soʻz yasovchi qoʻshimchalarni belgilang.

34- mashq. Berilgan soʻzlarga soʻz yasovchi qoʻshimchalar qoʻshish bilan oʻzakdosh soʻzlar yasang va yozing.

ov, ..., ...	suv, ..., ...
tuz,, ...	gul, ..., ...
ish, ..., ...	tish, ..., ...


Oʻzak va soʻz yasovchi qoʻshimchalarni belgilang.

35- mashq. Topishmoqlarni oʻqing va javobini toping.



Qoʻl, oyoqsiz chopib tolmas,
Suvsiz aslo yashay olmas.

Makonidir dalalar,
Pushtalarda bolalar.
To'ni yo'l-yo'l beqasam,
Mag'zi suvli va asal.



Aylanayin kuchli,
katta filimdan,
Paydo bo'lar: po'lat,
temir, ilmdan.

Yasama so'zlarni ko'chiring, o'zak va so'z yasovchi qo'shimchalarni belgilang.

36- mashq. O'qing.

Nurli, kuchli, ishla, ovchi, sozla, suvsiz, qorsiz, bo'yoqchi, qumli, ko'zla, sayohatchi, aqlli, odobsiz, mazali, tishla.

Har bir yasama so'zning o'zagi va so'z yasovchi qo'shimchasini chiziqcha bilan ko'chiring.

37- mashq. *Baliq, odob, intizom* so'zlariga so'z yasovchi qo'shimchalardan mosini qo'yib, yangi so'z hosil qiling va yozing. O'zak va so'z yasovchi qo'shimchalarni belgilang.

38- mashq. Gaplarni o'qing va ko'chiring.

1. Suvchi ekinlarni sug'oradi. 2. Ilmli odam xor bo'lmaydi. 3. Nodira gulli ko'ylagini kiydi. 4. Robiyaning ko'ylagi gulsiz ekan.

O'zak va so'z yasovchi qo'shimchalarni namunadagidek belgilang.

Namuna: *suvchi*.

39- mashq. Savollarni o'qing.

Terimchilar nima qiladilar? Kimlarni odobli bola deyish mumkin? Baliq suvsiz yashay oladimi? Ovchi nima ish bilan shug'ullanadi?

Javoblarni yozing, yasama so'zlarning o'zagi va so'z yasovchi qo'shimchalarini belgilang.

40- mashq. Nuqtalar o'rniga so'roqlarga mos so'zlarni qo'yib ko'chiring.

1. (Kim?) ... ko'mir qazib chiqaradi.
2. (Qanday?) ... bola kattalarni hurmat qiladi.
3. Biz (qanday?) ... ovqat yedik.
4. Duskadan gaplarni (qanday?)... ko'chiring.

Qo'yish uchun so'zlar: *odobli, konchi, mazali, xatosiz.*

O'zak va so'z yasovchi qo'shimchalarni belgilang.

41- mashq. So'z yasovchi **-chi, -la, -li, -siz** kabi qo'shimchalar qo'shib, sakkizta so'z yasang va yozing. O'zak va so'z yasovchi qo'shimchalarni belgilang.

42- mashq. *Ish, sut* so'zlariga qarshisidagi qo'shimchalarni qo'shib, yangi so'zlar yasang va ularning ma'nolarini tushuntiring.

ish — chi
— la
— li
— siz

sut — chi
— li
— siz

43- mashq. Nuqtalar o‘rniga so‘z yasovchi qo‘shimchalardan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1. Baliq... qushlar dengiz ustida uchadi.
2. Tulki ov...ning tuzog‘iga tushdi. 3. Avval o‘y..., keyin so‘z... . 4. Ish...gan tishlaydi, ish...magan kishnaydi. 5. Sevim... shoirlarimiz bilan uchrashuv bo‘ldi.

O‘zak va so‘z yasovchi qo‘shimchalarni belgilang.

44- mashq. Nuqtalar o‘rniga so‘z yasovchi qo‘shimchalardan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

Terim...lar terilgan paxtalarni zavodga jo‘natadilar. Zavodda paxta chigitidan toza...nadi. Zavod ish...lari tayyor paxtani fabrikaga yuboradilar. Fabrikada paxtadan ip yigiriladi. Ipdan gul..., gul... gazlamalar to‘qiladi.

O‘zak va so‘z yasovchi qo‘shimchalarni belgilang.

45- mashq. O‘qing. O‘zak va so‘z yasovchi qo‘shimchalarni aniqlang.

1. Bichiqchi, hisobchi, kombaynchi.
2. Hidsiz, rangsiz, mazasiz.
3. Ko‘zla, o‘yla, so‘zla.
4. Hidli, mazali, suvli.

Shu so‘zlarni qatnashtirib gaplar tuzing. So‘zlarni ko‘chiring, so‘z yasovchi qo‘shimchalarni belgilang.

46- mashq. *Tuz, odob, soʻz, aʻlo* soʻzlariga soʻz yasovchi qoʻshimchalardan mosini qoʻshib, yangi soʻz hosil qiling va yozing. Oʻzak va soʻz yasovchi qoʻshimchalarni belgilang.

47- mashq. Oʻqing, koʻchiring.

1. Tikansiz gul, mashaqqatsiz hunar boʻlmas. 2. Koʻp oʻyla, oz soʻzla. 3. Gulsiz chaman boʻlmas, mehnatsiz rohat. 4. Oz soʻzla, soz soʻzla.

Soʻz yasovchi qoʻshimchalarni belgilang. Maqollarning mazmunini tushuntiring.

48- mashq. Berilgan soʻzlardan foydalanib, «Bizning sinf» mavzusida hikoya tuzing va yozing.

Foydalanish uchun soʻzlar: *oʻquvchi, oʻqituvchi, aʻlochi, odobli, intizomli, xatosiz, soʻzsiz, ishsiz, ishla.*

Soʻz oʻzgartuvchi qoʻshimchalar

49- mashq. Maqollarni oʻqing.

1. Vatanni qadrlamagan oʻzini qadrlamas. 2. Vatanning tinch – sen tinch. 3. Vatanga falokat – oʻzingga halokat. 4. Vatandan uzoqlashgan nomusdan oʻlar.

Vatan soʻzining qaysi soʻz bilan bogʻlanganini soʻroqlar yordamida aniqlang. Maqollarni koʻchiring. Soʻzlarni bir-biriga bogʻlaydigan **-ning, -ni, -ga, -dan** qoʻshimchalarining tagiga chizing.

50- mashq. O'qing.

1. Mehnatdan qo'rqma, minnatdan qo'rq.
2. Odam mehnatda sinaladi.
3. Mehnatning rohati bor.
4. Mehnatini ayamagan dehqon mo'l hosil yetishtiradi.

Mehnat so'zining qaysi so'z bilan bog'langanini so'roqlar yordamida aniqlang va yozing. So'zlarni bir-biriga bog'laydigan **-ning**, **-ni**, **-da**, **-dan** qo'shimchalarini namunadagidek belgilang.

Namuna: *mehnatning* rohati (nimaning rohati?), *mehnatdan* qo'rqma (nimadan qo'rqma?)

51- mashq. O'qing.

Har kuni men haydovchi tog'am bilan (qayerga?) **fermaga** boraman. (Qayerda?) **Fermada** sigirlar ko'p. (Nimaning?) **Fermaning** ichi keng va yorug'. Sigirlar sut sog'ish mashinasi bilan sog'iladi. (Qayerdan?) **Fermadan** keltirilgan sut do'konlarga tarqatiladi.

Har bir gapdagi *ferma* so'zini so'rog'i va o'zi bog'langan so'z bilan namunadagidek yozing. **-ga**, **-da**, **-ning**, **-dan** qo'shimchalarini belgilang.

Namuna: *Qayerga boraman? Fermaga boraman.*

52- mashq. Nuqtalar o'rniga gapning mazmuniga mos so'z o'zgartuvchi qo'shimchalarni qo'yib, gaplarni o'qing va ko'chiring.

Biz Vatanimiz... sevamiz. Vatanimiz... qishloq va shaharlari go'zal. Vatanimiz... turli

millat vakillari yashaydi. Vatanimiz... kelajagi buyuk.

Soʻz oʻzgartuvchi qoʻshimchalarni belgilang.



-ning, -ni, -ga, -da, -dan qoʻshimchalari gapda soʻzlarni bir-biriga bogʻlaydi.

Gapda soʻzlarni bir-biriga bogʻlaydigan qoʻshimchalar soʻz oʻzgartuvchi qoʻshimchalar deyiladi. Soʻz oʻzgartuvchi qoʻshimchalar yangi soʻz yasamaydi. **-ning, -ni, -ga, -da, -dan** kabi qoʻshimchalar soʻz oʻzgartuvchi qoʻshimchalarga kiradi.

53- mashq. Nuqtalar oʻrniga soʻz oʻzgartuvchi qoʻshimchalardan mosini qoʻyib, gaplarni koʻchiring.

Bugun ukam maktab... xursand boʻlib qaytdi. U kundalik daftari... onam... koʻrsatdi. Onam uning baholari... koʻrib quvondi. Ukamning kundalik daftari... faqat aʼlo baholar qoʻyilgan.

Nuqtalar oʻrniga qoʻyilgan soʻz oʻzgartuvchi qoʻshimchalarni belgilang.

54- mashq. Nuqtalar oʻrniga soʻz oʻzgartuvchi qoʻshimchalardan mosini qoʻyib, gaplarni oʻqing va koʻchiring.

MUSICHA

Musicha yuvosh, odam... qoʻrqmaydigan qush. U koʻproq uzum barglari... tushadigan

ko'k qurtlar..., bezgak pashshalar... dodini beradi.

Nuqtalar o'rniga qo'yilgan so'z o'zgartuvchi qo'shimchalarni belgilang.

55- mashq. Nuqtalar o'rniga so'z o'zgartuvchi qo'shimchalardan mosini qo'yib, matnni ko'chiring.

KATTA BAYRAM BO'LDI

Maktabimiz hovlisida ulug' bobomiz Alisher Navoiy haykali bo'lishi... juda orzu qilardik. Shu orzumiz yangi yil arafasida ushaldi. Maktab hovlisi... ulug' bobomiz... haykali qad ko'tardi. Biz bun... juda xursand bo'ldik. Maktabimiz... katta bayram bo'ldi.

Nuqtalar o'rniga qo'yilgan so'z o'zgartuvchi qo'shimchalarni belgilang.

56- mashq. Nuqtalar o'rniga so'z o'zgartuvchi qo'shimchalardan mosini qo'yib gaplarni o'qing.

Odiljon... dadasi traktor zavodi... mexanik bo'lib ishlaydi. U tajribali ishchi. Samarali mehnati uchun Odiljonning dadasi... orden bilan mukofotlashdi.

Ko'chiring. So'z o'zgartuvchi qo'shimchalarni belgilang.

57- mashq. Nuqtalar o'rniga *Feruza* so'zini so'roqlarga mos holda o'zgartirib qo'yib, gaplarni o'qing va ko'chiring.

(Kimning?) ... ukasi bor. (Kimni?)... ukasi juda yaxshi ko'radi. Ukasi (kimga?)...

juda mehribon. (Kim dan?)... sira ajralgisi kelmaydi.

Har bir gapdagi Feruza soʻziga qoʻshilib kelgan soʻz oʻzgartuvchi qoʻshimchalarni belgilang.

58- mashq. Nuqtalar oʻrniga *gul* soʻzini soʻroqlarga mos holda oʻzgartirib qoʻyib, gaplarni koʻchiring.

Maktabimiz hovlisida (nimalar?) ... koʻp. (Nimalarni?) ... oʻzimiz parvarish qilamiz. (Nimalarga?) ... suv quyamiz. (Nimalarning?) tagini yumshatamiz. Bayramlarda (nimalardan?) ... guldasta yasab ustozlarimizga tortiq qilamiz.

Har bir gapdagi *gul* soʻziga qoʻshilib kelgan soʻz oʻzgartuvchi qoʻshimchalarni belgilang.

59- mashq. Nuqtalar oʻrniga *ferma* soʻzini soʻroqlarga mos holda oʻzgartirib qoʻying. Gaplarni oʻqing va koʻchiring.

Mening onam (qayerda?) ... ishlaydi. Men taʼtilda har kuni onam bilan (qayerga?) ... boraman. (Nimaning?) ... ichi keng va toza. (Qayerda?) ... sigirlar koʻp. (Qayerdan?) ... olingan sut doʻkonlarga tarqatiladi.

Hikoyadagi soʻzlar tarkibida kelgan soʻz yasovchi va soʻz oʻzgartuvchi qoʻshimchalarni belgilang.

60- mashq. Gaplarni oʻqing.

Biz **bahorda** ipak qurti boqamiz. **Men maktabdan** kelib, onamga yordamlasha-

man. **Qurtlarga** tut bargi beramiz. Qurtlar **bargni** shitir-shitir ovoz chiqarib yeyishadi. Qurtlar pilla o'raydi. Biz **pilladan** mo'l hosil olamiz.

Ajratib ko'rsatilgan so'zlardagi so'z o'zgartuvchi qo'shimchalarni belgilang, shu so'zlarga so'roq bering.

61- mashq. She'ni ifodali o'qing.

MIX

Ostonada yotar edi
Bir mix qayrilib,
Yirtar edi shippakni
Yonidan ilib.

Ahmadjon bor kuchini
Berib omburga,
O'mbaloq oshib tushdi
Mix bilan yerga.

Ahmad shod, chiqdi ishning
U uddasidan.
Qalay, qo'rqmas ekanmi
Ish ustasidan?

(G'. Komilov)

So'z o'zgartuvchi qo'shimchali so'zlarni toping va ko'chiring.

62- mashq. So'zlarni o'qing, so'z yasovchi va so'z o'zgartuvchi qo'shimchalarni topib, chiziqcha bilan ajratib ko'chiring.

Gulchining, yordamchisiz, baliqchi, g'ayratli, sabrsiz, mazmunli, maktabga, sutchidan, bog'bonning, o'qishni, mazali, o'quvchiga.

So'z yasovchi va so'z o'zgartuvchi qo'shimchalarni belgilang.

Namuna: *Gul-chi-ning*.

63- mashq. So'zlarni o'qing. Har bir qatordagi so'zlardan gaplar tuzing.

1. Dars, tayyorla, **vaqti**, o'z.
2. **Sut**, mahsulotlar, turli, tayyorlanadi.
3. Suvchi, sug'oradi, **g'o'za**, tunda.
4. **Quyosh**, xona, tushdi, nuri.

Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga so'z o'zgartuvchi qo'shimchalar qo'shing, ulardan gap tuzing. So'z o'zgartuvchi qo'shimchalarni belgilang.

NARSA VA SHAXSNING NOMINI, HARAKATINI, BELGISINI BILDIRGAN SO'ZLAR

Narsa va shaxsning nomini bildirgan so'zlar

1- mashq. Narsa va shaxs nomini bildirgan so'zlarni o'qing.

Kitob, daftar, ruchka, o'chirg'ich, chizg'ich, qalam, albom, o'quvchi, doska, bola, sinfdosh, oshpaz, shifokor, to'quvchi, rassom.

So'zlarga so'roq bering, avval kim?, so'ngra nima? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarni ko'chiring.

2- mashq. Kim? va nima? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarni yozing.

Kim? – o'qituvchi, o'quvchi,...

Nima? – doska, deraza, ..., ...

3- mashq. Gaplarni o'qing.

Meva va sabzavot do'konidan piyoz, kartoshka, karam, pomidor, sabzi, turp, sholg'om kabi sabzavotlarni, shuningdek, olma, olxo'ri, behi, uzum, nok, xurmo, anor kabi mevalarni ko'plab xarid qilish mumkin. Un, guruch, non, yog', go'sht, kolbasa, shakar, qand, makaron va boshqa mahsulotlar oziq-ovqat do'konida sotiladi.

Matndan narsalarni bildirgan so'zlarni topib, ularga so'roq bering va guruhlab ko'chiring.

Namuna: **Meva** – nima? *olma*, ...

Sabzavotlar –

Oziq-ovqatlar –

4- mashq. O'qing.

Bu go'zal qishloqda Xondamir yashaydi. U yaxshi bola. Xondamirning akasi, opasi va ukasi bor.

Xondamir ularni yaxshi ko'radi. Ammo bu vijoni uning uchun eng aziz.

Hovlilalarida sigir, echki, xo'roz, bo'ribosar iti bor. Xondamir To'riq otni juda yaxshi ko'radi.

(Mirmuhsin)

Avval kim? so'rog'iga, so'ngra nima? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarni ko'chiring.



Kim? va nima? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlar narsa va shaxs nomlarini bildiradi.

5- mashq. Narsa va shaxs nomlarini bildirgan so'zlarni quyidagi tartibda yozing.

Kishilar (kim?) – o'quvchi, ...

Narsalar (nima?) – daraxt, ...

6- mashq. Savollarga javob bering va namuna-dagidek yozing.

Kim suzadi? Nima suzadi? Kim taqillatdi?
Nima sayraydi?

Namuna: *O'rdak, g'oz, oqqush, baliq suzadi.*

Bola, suzuvchi, ..., ... suzadi.

Begona odam, ..., ... taqillatdi.

Bulbul, ..., ..., ... sayraydi.

7- mashq. Nuqtalar o'rniga kim? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarni qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. ... maktabimiz oshxonasida mazali taomlar pishiradi. 2. ... samolyotda uchadi. 3. ... chiroyli gilamlar to'qiydi. 4. ... derazaga rom yasaydi. 5. ... yerni shudgor qiladi.

Qo'yish uchun so'zlar: *oshpaz, uchuvchi, to'quvchi, duradgor, traktorchi.*

Qo'yg'an so'zlaringizning tagiga chizing va ularga so'roq bering.

8- mashq. Nuqtalar o'rniga narsa-buyum nomini bildiradigan so'zlarni yozing.

Gullar: ..., ..., ..., Mevalar: ..., ..., ..., Donlar: ..., ..., ..., Daraxtlar: ..., ..., ...,

Qo'yish uchun so'zlar: *behi, bug'doy, terak, mosh, qayrag'och, binafsha, olxo'ri, shaf-toli, loviya, uzum, olma, jo'xori, tol, tola, archa, chuchmoma, anjir, gulsapsar.*

Yozgan so'zlaringiz qanday so'roqqa javob bolishini ayting.

9- mashq. So'zlarni o'qing. Nuqtalar o'rniga narsalarning umumiy nomini bildiradigan so'zlarni qo'yib, ko'chiring.

Avtobus, tramvay, trolleybus –

Palto, plash, kostum, ko'ylak –....

Kosa, piyola, lagan, choynak, likopcha –

... .

Etik, tufli, shippak, mahsi –

Bu so'zlar qanday so'roqqa javob bo'ladi?

10- mashq. Nuqtalar o'rniga suv so'zini so'roqlarga mos holda qo'llab yozing.

1. (Nima?) ... – xalq boyligi. 2. (Nimani?) ... tejash kerak. 3. Inson hayotida (nimaning?) ... ahamiyati nihoyatda katta. 4. Ichiladigan (nimaga?) ... yod moddasi qo'shiladi. 5. (Qayerda?) ... yashovchi hayvonlar turi ko'p.

Narsa va shaxs nomini bildirgan soʻzlarning tagiga chizing, soʻz oʻzgartuvchi qoʻshimchalarni belgilang.

11- mashq. Oʻqing, avval *kimlar?*, soʻngra *nimalar?* soʻrogʻiga javob boʻlgan soʻzlarni koʻchiring.

Kitoblar, bolalar, koptoklar, kuchuklar, qargʻalar, qurbaqalar, temirlar, oʻsimliklar, qoʻngʻizlar, kapalaklar, odamlar, oʻquvchilar, uchuvchilar, kosmonavtlar.



Koʻp narsa va shaxslarni bildirgan soʻzlar *kimlar?*, *nimalar?* soʻrogʻiga javob boʻladi.

12- mashq. Gapnlarni oʻqing.

1. Oʻquvchi topshiriqni toʻgʻri bajardi. Oʻquvchilar sayohatga tayyorgarlik koʻrdilar. 2. Bulbul qafasda yashay olmaydi. Bulbullar gulzorda sayraydilar. 3. Ayvonga qaldirgʻoch bahorda uya qurdi. Qaldirgʻochlar yana ilk bahorda keladilar. 5. Men oʻqigan kitob juda qiziq ekan. Kutubxonaga yangi kitoblar keltirildi.

Bir narsa yoki shaxsni va birdan ortiq narsa yoki shaxsni bildirgan soʻzlarni ustun shaklida yozing, ularga soʻroq bering.

Namuna:	<i>kim?</i>	<i>kimlar?</i>
	<i>oʻquvchi</i>	<i>oʻquvchilar</i>
	<i>nima?</i>	<i>nimalar?</i>
	<i>kitob</i>	<i>kitoblar</i>

13- mashq. So‘roqlarga javob bering.

Kimlar suza oladi? Nimalar suza oladi?
Kim derazani taqillatdi? Nima derazani taqillatdi?

(Kimlar?) Dengizchilar, ..., ... suza oladi.

(Nimalar?) Qayiqalar, ..., ..., ... suza oladi.

(Kim?) Qo‘shnimiz, ..., ..., ... derazani taqillatdi.

(Nima?) Yomg‘ir, ..., ..., ... derazani taqillatdi.

14- mashq. So‘zlarni o‘qing, ularni birlik va ko‘plikda yozing.

Kosmonavt, uchuvchi, haydovchi, olim, shifokor, tarbiyachi, o‘qituvchi, yozuvchi, oshpaz.

Namuna: **Birlik**

Kosmonavt

Ko‘plik

Kosmonavtlar

15- mashq. O‘qing, narsa va shaxs nomini bildirgan so‘zlarni aniqlang va ularga so‘roq bering.

1. Daraxtda qush sayrayapti. 2. Shahar ustidan samolyot uchib o‘tdi. 3. Sportchi musobaqaga tayyorlandi. 4. Shifokor bemorga yordam berdi.

Bir narsa va shaxs nomini bildiradigan so‘zlarni ko‘p narsa va shaxs nomini bildiradigan so‘zlar bilan almashtirib, gaplarni ko‘chiring.

16- mashq. Hikoyani o'qing, har bir gapdagi *quyon* so'ziga so'roq berib, gaplarni ko'chiring.

O'rmonda quyon ham yashaydi. Quyoning dushmani ko'p. Ayniqsa, tulki va bo'ri quyonni ko'p ovlaydi. Quyonga qiyin. Qo'r-qoq quyoncha haqida juda ko'p ertaklar yaratilgan.

17- mashq. O'qing, narsa va shaxs nomini bildirgan so'zlarga so'roq berib, gaplarni ko'chiring.

Biz yangi uch xonali uy oldik. Uyimiz shahar markazida joylashgan. Uyimizning xonalari katta va yorug'.

Biz hammamiz yangi uyda xursand yashayapmiz.

18- mashq. *Kim?* va *kimlar?* so'roqlariga javob bo'lgan so'zlar ishtirokida gaplar tuzib yozing.

19- mashq. O'qing, ajratib ko'rsatilgan so'zlarga so'roq berib, gaplarni ko'chiring.

Yozgi ta'tilda biz **oromgohda** dam olamiz. **Oromgoh** tog' etagida joylashgan. **Oromgohning** havosi salqin va yoqimli. Biz **oromgohga** o'rganib qoldik. **Oromgohdan** ketishni istamasdik. Biz **oromgohni** hamisha eslab yuramiz.

20- mashq. Maqollarni o'qing, ajratib ko'rsatilgan so'zlarga so'roq berib, ko'chiring.

Bir kun **tuz** ichgan joyga qirq kun salom ber. Qolgan **ishga** qor yog'ar. **Bo'ri-**

dan qo'rqqan to'qayga kirmas. **Gapni** oz so'zla, **ishni** ko'p ko'zla. **Qo'rqqanga** qo'sha ko'rinar.

Narsa va shaxsning harakatini bildirgan so'zlar



Uxladi, haydayapti, uchyapti, ko'rinadi, yeydi, tozaladi so'zlari narsa va shaxsning harakatini bildiradi.

Narsa va shaxsning harakatini bildirgan so'zlar nima qildi?, nima qilyapti?, nima qiladi? so'roqlariga javob bo'ladi.

21- mashq. So'roqlar o'rniga shaxsning harakatini bildirgan so'zlarni qo'yib gap tuzing va yozing.

Quruvchi (nima qiladi?)... . Ishchi (nima qiladi?) O'quvchi (nima qiladi?)... . Tikuvchi (nima qiladi?)

Qo'yish uchun so'zlar: *tikadi, quradi, ishlaydi, o'qiydi.*

22- mashq. Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'yib, gaplarni ko'chiring.

Bugun Mahmud (nima qilyapti?)... . Kecha u (nima qilgan edi?) kitob ... edi. Ertaga Mahmud (nima qilmoqchi?) ertakni Bolalar maktabda (nima qilishadi?)

Qo'yish uchun so'zlar: dam olyapti, o'qigan, o'qimoqchi, o'qishadi.

23- mashq. O'qing.

Traktorchi traktorga plugni uladi. U plug bilan yerni haydayapti. Traktorning ortidan qushlar galasi uchyapti. Shudgorlangan yerda qurt-qumursqalar yaxshi ko'rinadi. Qushlar ularni terib yeydi. Yer zararli hasharotlardan tozalanadi.

Matndan quyidagi so'roqlarga javob bo'lgan so'zlarni yozing.

Nima qildi?

Nima qilyapti? ...,

Nima qiladi? ..., ... ,

Siz yozgan so'zlar nimani bildiriyapti?

Narsa va shaxs nomini bildirgan so'zlarni belgilang.

24- mashq. O'qing.

Odatda, chumolilar to'p-to'p bo'lib yashaydi. Ular yozda qish uchun birgalashib ovqat g'amlaydilar. Chumolilar mayda qo'ng'iz va kapalak qurtlarini yeydi. Ular o'rmon va bog'larni turli zararkunandalardan saqlaydi.

So'roqlar yordamida narsa va shaxsning harakatini bildirgan so'zlarni aniqlang va ko'chiring.

25- mashq. O'qing. Narsa va shaxsning harakatini bildirgan so'zlarga so'roqlar berib, ko'chiring.

1. Shamol yaproqlarni (...?) silkitadi.
2. Tikuvchi kiyim (...?) tikyapti.
3. Me-

xanizator mashinada paxta (...?) teradi. 4. Anvar g'ijjak (...?) chaladi. 5. Qushlar in (...?) quradi. 6. Yomg'irdan so'ng kamalak (...?) ko'rinadi.

Narsa va shaxs nomini bildirgan so'zlarni belgilang.

26- mashq. Nuqtalar o'rniga qavs ichidagi so'roqlarga mos narsa va shaxs harakatini bildirgan so'zlarni qo'yib, gaplarni ko'chiring.

KECHA, BUGUN VA ERTAGA

Sobir kecha kinoga (nima qildi?)... . U bugun kitob (nima qilyapti?)... . Sobir bilan Odil kecha to'garakka (nima qilishdi?)... . Ular bugun (nima qilishyapti?) Sobir bilan Odil ertaga kitob (nima qilishmoqchi?)

Qo'yish uchun so'zlar: *dam olishyapti, bordi, o'qiyapti, borishdi, o'qishmoqchi.*

27- mashq. Nuqtalar o'rniga nima qiladi?, nima qildi?, nima qilyapti? so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlarni qo'yib, gaplarni ko'chiring.

Xalqlar tinchlikni Viloyatimizda Navro'z bayramiga bag'ishlangan tantana Maktab direktori nutq Maktabimizda bolalar o'zbek va rus tilida Biz inoq, bir oila farzandlaridek... .

Qo'yish uchun so'zlar: *yashaymiz, istaydi, so'zladi, o'tkazildi, o'qishadi.*

28- mashq. O'qing.

1. Musicha tarnovga qo'ndi. 2. Tovuqlar donlayapti. 3. Kuchuk uychasidan qarayapti. 4. Mushuk sichqonni quvladi. 5. Musicha yerga qo'ndi. 6. Mushuk uni ham quvladi.

Quyidagi so'roqlarga javob bo'lgan so'zlarni narsa va shaxs nomini bildirgan so'zlar bilan birga ko'chiring.

Nima qildi?

Nima qilyapti?

29- mashq. Narsa va shaxsning harakatini bildirgan quyidagi so'zlarga mos narsa va shaxs nomini bildiradigan so'zlarni tanlang va gaplarni yozing.

... yoritadi, isitadi.

... sakrayapti, ma'rayapti.

... qizaradi, pishadi, to'kiladi.

... yuguradi, kishnaydi.

... sakrayapti, uchyapti.

Qo'yish uchun so'zlar: *ot, olma, to'rg'ay, echki, quyosh.*

30- mashq. Rasmlarni ko'ring. Nuqtalar o'rniga rasmlarga mos harakat bildirgan so'zlarni qo'yib o'qing.



Nazira ...



Azamat ...



Salima ...



Botir ...

Bolalar nima qilyaptilar?

Javobingizni yozing, narsa va shaxs harakatini bildirgan soʻzlarning tagiga chizing.

31- mashq. Birinchi ustundagi soʻzlarga ikkinchi ustundagi soʻzlardan mosini tanlab, gap tuzing.

Pomidor	chalindi.
Qoʻngʻiroq	gʻuvillamoqda.
Pashsha	gumburlayotir.
Oʻroqchi	pishdi.
Momaqaldiraq	oʻradi.

Namuna: *Pomidor pishdi.*

32- mashq. Soʻzlarni oʻqing.

Quyvon, mushuk, qargʻa, boʻri, laylak.
Sakraydi, uchadi, qagʻillaydi, uvillaydi,
miyovlaydi.

Narsa yoki shaxs nomini va harakatini bildirgan soʻzlar ishtirokida gaplar tuzing va yozing.

Namuna: *Quyvon sakraydi.*

33- mashq. So‘roqlar o‘rniga mos keladigan so‘zlarni qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1. Ishchilar (nima qilishyapti?)
2. O‘quvchilar (nima qilyaptilar?)... .
3. Shifokor kasallarni (nima qil-yapti?)... .
4. O‘qituvchi bolalarni (nima qiladi?)
5. Darsda o‘quvchi she‘r (nima qildi?)

... .

Qo‘yish uchun so‘zlar: *o‘qitadi, davolayap-ti, o‘qiyaptilar, ishlashyapti, o‘qidi.*

34- mashq. Nuqtalar o‘rniga *nima qiladi?, nima qilyapti?, nima qildi?* so‘roqlariga ja-vob bo‘ladigan so‘zlarni tanlab, gaplarni ko‘chiring.

1. Poyezd temiryo‘ldan
2. Kosmonavt raketada
3. G‘allakor mexanizator g‘alla-ni mashinada
4. Chegarachi Vata-nimizni....
5. Odiljon onasiga
6. Duradgor taxta

Qo‘yish uchun so‘zlar: *randalayapti, uchdi, qo‘riqlaydi, yuradi, o‘rdi, yordamlashyapti.*

35- mashq. Berilgan so‘zlar yordamida gap tuzing.

Quruvchi Tikuvchi Duradgor... .
To‘quvchi

Tuzgan gaplaringizni yozing, harakatni bildirgan so‘zlarni belgilang.

36- mashq. Diktant yozishga tayyorlaning.

Kitob o‘qish foydali. Kitob seni yerda-gi, suv ostidagi hayot bilan ham tanishtira-

di. U ahil yashashga, o'ртоqlaringga yordam berishga o'rgatadi.

Nima qiladi? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarning tagiga chizing.

37- mashq. Rasmlarni ko'ring va mazmunini hikoya qiling.



Kim nima qiladi? savoliga javob bering.
Namuna: shifokor davolaydi.

Javoblaringiz asosida «Kasblar» sarlavhali hikoya tuzing va yozing.

Narsa va shaxsning belgisini bildirgan so'zlar

38- mashq. Atrofingizga qarang. Narsa va shaxslarning belgisini ayting. Savollarga javob bering va javobingizni yozing.

Namuna: Qanday sinf? *Katta, keng, chiroyli sinf.*

Qanaqa bino? Qanday xona?

Narsa va shaxsning belgisini bildirgan so'zlarni narsa va shaxs nomini bildirgan so'zlar bilan birga yozing.

39- mashq. O'qing, narsaning belgisiga qarab, topishmoqning javobini toping.

Oppoq bo'lib qor emas,
Suyuq bo'lib suv emas.
Shirin bo'lib qand emas,
Qani, toping, bu nima?

Topishmoq *sut* haqida aytilganini bilishingizda sizga qaysi so'zlar yordam berdi? Shu so'zlarga so'roq bering: qanday? – *oppoq*.

Ko'chiring. Narsa va shaxsning belgisini bildirgan so'zlarning tagiga to'liqinli chiziq chizing.

40- mashq. O'qing.

Havo ochiq. Bugun **go'zal** tabiat yanada ko'rkamlashgan. **Erta** tong – quyosh nur sochmoqda. Ko'cha va hovlilardagi **oq, sariq, qizil** gullar quyosh nurida tovlanadi. **Mayin** shamol xushbo'y hid taratadi. Qushlarning yoqimli ovozi kishiga zavq bag'ishlaydi. Eh, bahor qanday **ko'rkam** fasl!

Ajratilgan so'zlarga so'roq bering. Bu so'zlar nimaning bildiriyapti?

Narsa va shaxs belgisini bildirgan so'zlarni aniqlang va ularni o'zi bog'lanib kelgan so'z bilan birgalikda namunadagidek ko'chiring.

Namuna: (qanday fasl?) ko'rkam fasl.



Qanday? yoki qanaqa? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlar narsa va shaxsning belgisini bildiradi: qanaqa?

– *baland, go‘zal; qanday? – g‘ishtli, mevali, ko‘rkam, zangori, issiq.*

41- mashq. O‘qing, so‘roqlar o‘rniga narsa va shaxs nomini bildirgan so‘zlarga mos ularning belgisini bildirgan so‘zlar topib, namunadagidek yozing.

Namuna: qanday uy? – *baland uy*

qanaqa doska? – ...

qanday tog‘? – ...

qanaqa bo‘r? – ...

qanday tom? – ...

qanday uycha? – ...

Qo‘yish uchun so‘zlar: *qora, oq, past, bafand, kichkina.*

42- mashq. Ikki narsani bir-biriga qiyoslab, gaplar tuzing va yozing.

Namuna: Rangiga ko‘ra: *ko‘mir* (qanday?)
qora, bo‘r esa (qanday?)

Mazasiga ko‘ra: *garmdori* (qanday?)
achchiq, qand esa (qanday?)

Shakliga ko‘ra: *qarg‘a* (qanday?)
katta, chumchuq esa (qanday?)

Qarama-qarshi ma‘noli so‘zlarning tagiga chizing.

Baland, past, yumshoq, qattiq, katta, kichik so‘zlaridan foydalanib gaplar tuzing va yozing. Narsa va shaxs belgisini bildirgan qarama-qarshi ma‘noli so‘zlarning tagiga chizing.

43- mashq. O'qing. Javobini toping. Ko'chiring.

– Mayda, yoqutday qizil,
Shirin, nordon, xilma-xil.
Qalin, taxir po'sti bor,
Hamma yerda do'sti bor.
Sen ayt-chi, qizim Gulnor!
Bu-mi, dadajon, ...

(G'. G'ulom)

Topishmoqning javobini topishingizda qaysi so'zlar yordam berdi? Shu so'zlar nimani bildiradi? Ularning tagiga chizing.

44- mashq. O'qing.

Oppoq va sip-silliq quyuncha tipratikanga qarab:

– Og'aynijon, kiyiming juda ham **xunuk va tikanli-ya**, – dedi.

– To'g'ri aytasan, biroq tikanlarim meni it va bo'rilarning **o'tkir** tishidan saqlaydi. Sening **oppoqqina, yumshoqqina** to'ning ham shunday xizmat qiladimi? – dedi tipratikan.

Quyuncha javob bermay, xo'rsinib qo'ydi.

Savollarga javob bering.

1. Quyuncha tipratikanga nima dedi?
2. Tipratikan quyuncha nima deb javob berdi?
3. Quyuncha nima uchun xo'rsinib qo'ydi?

Ajratilgan so'zlarga so'roq bering va yozing. Shu so'zlar nimani bildiriyapti?

45- mashq. So'zlarni o'qing. Shu so'zlar ishtirokida gaplar tuzing. Tuzgan gaplaringizdan hikoya hosil bo'lsin.

Go‘zal, yoqimli, kuchli, ko‘m-ko‘k; bahor, shamol, quyosh, maysa; keldi, esdi, qizdirdi, ko‘kardi.

Tuzgan gaplaringizdagi narsa va shaxsning belgisini bildirgan so‘zlarning tagiga to‘lqinli chiziq chizing. Hikoyaga sarlavha qo‘ying.

46- mashq. O‘qing. Narsa va shaxsning belgisini bildirgan so‘zlarga mos narsa va shaxs nomini bildirgan so‘zlar topib yozing.

Keng, katta, chuqur...; ko‘m-ko‘k, sershox...; oppoq, qalin, yumshoq ...; tiniq, beg‘ubor...; sof, salqin ...; quyuq, yamyashil

Qo‘yish uchun so‘zlar: *osmon, qor, daryo, havo, o‘rmon, daraxt, suv.*

47- mashq. O‘qing, *nima? nima qiladi? qanaqa?* so‘roqlariga javob bo‘ladigan so‘zlarni toping.

Tugmachagul, boychechak,
Qizil, pushti, gul, pechak.
Oq nastarin, gulxayri –
Bog‘da o‘sadi bari.
Yoqimli hid sochadi,
Bahri dilni ochadi.

(M. Zaynobiddinova)

Javobingizni quyidagi tartibda yozing.

Narsa va shaxs nomini bildirgan so‘zlar:
nima? ...,

Narsa va shaxsning harakatini bildirgan soʻzlar: nima qiladi? ..., ...,

Narsaning belgisini bildirgan soʻzlar: qa-naqa? ..., ...,

48- mashq. Oʻqing. Narsaning belgisini bildirgan soʻzlarga soʻroq bering.

KAPALAKLAR

Bahor kunlari edi. Quyosh nur sochmoqda. Gulzorda har xil kapalaklar uchib yuribdi. Ular gullarga qoʻnib, shirin suyuqliklarni soʻrib oladilar.

Mana, oq gulga oq kapalak, qizil gulga qora kapalak, sariq gulga sariq kapalak, koʻk gulga koʻk kapalak qoʻndi. Uzoqdan qaldirgʻoch uchib keldi. U qizil guldagi qora kapalakni koʻrib, uni tutib oldi.

Narsaning belgisini bildirgan soʻzlarni oʻzi bogʻlab kelgan narsa nomini bildirgan soʻz bilan birgalikda koʻchiring.

49- mashq. Har bir qatordagi soʻzlardan gap tuzing. Tuzgan gaplaringizni yozing. Hosil boʻlgan hikoyaga sarlavha toping.

kirdi, Aziza, bogʻga.

oq, ochilgan, sariq, bogʻda, qizil, gullar, daraxtlarda, sayrayapti, qushlar, sayroqi.

Aziza, maysalar ustida, oʻynadi, koʻm-koʻk, tingladi, sayrashini, yoqimli, qushlarning.

Narsaning belgisini bildirgan soʻzlar tagiga toʻliqini chiziq chizing.

50- mashq. Sinfdagi narsa va shaxs nomini, uning harakatini va belgisini bildirgan soʻzlarni tartib bilan yozing.

Narsa va shaxs nomini bildirgan soʻzlar: kim? nima? ...,

Narsa va shaxsning harakatini bildirgan soʻzlar: nima qiladi? ...,

Narsa va shaxsning belgisini bildirgan soʻzlar: qanaqa? ...,

51- mashq. Oʻqing.

Nutq – gaplar orqali bildirilgan fikrdir. Nutq gaplardan, gap esa soʻzlardan tuziladi. Soʻzlar kim?, nima?, qanday?, qanaqa?, nima qildi?, nima qiladi?, nima qilyapti? kabi soʻroqlarga javob boʻladi.

Kim?, nima? soʻroqlari narsa va shaxs nomini bildiruvchi soʻzlarga beriladi. Narsa va shaxsning belgisini ifodalaydigan soʻzlar qanday?, qanaqa? soʻroqlariga javob boʻladi. Nima qildi?, nima qilyapti?, nima qiladi? soʻroqlari narsa va shaxsning harakatini bildiradigan soʻzlarga beriladi.

Savollarga javob bering va yozing.

1. Gap nimalardan tuziladi?
2. Soʻzlar nimalarni bildiradi?
3. Soʻzlar qanday soʻroqlarga javob boʻladi.

GAP

1- mashq. Matnni o'qing.

BUYUK IPAK YO'LI

Buyuk ipak yo'li asrlar davomida turli mamlakatlarni bir-biri bilan bog'lagan. Bu mamlakatlarda savdo-sotiq rivojlangan, ma'rifat-madaniyat kamol topgan. Bu yo'l O'zbekistonning talay shaharlari orqali o'tar edi. Natijada bozorlar noz-ne'matlar bilan to'lgan. To'kin-sochin hayot hukm surgan. Bu savdo yo'li o'tgan davlatlar xalqlari bir-birlari bilan do'stlikda, tinchlikda hayot kechirganlar.

Matn nechta gapdan iborat? Har bir gapda nechtadan so'z bor? Gaplarni ko'chiring.

2- mashq. O'qing.

sevadi, juda, yer, mehnatni, baxt
kishilarga, keltiradi, mehnat

Nimalarni o'qidingiz? Bu so'zlar nega gap hosil qilmadi? Gap hosil bo'lishi uchun nima qilish kerak? Shu so'zlardan gap tuzing va yozing.



Gap tugallangan mazmuni bildiradi. Gaplar so'zlardan tuziladi. Gapda so'zlar bir-biri bilan o'zaro bog'lanadi.

Gapning birinchi soʻzi **bosh harf** bilan boshlanadi.

Gapning oxiriga nuqta, soʻroq belgisi yoki **undov belgisi** qoʻyiladi.

3- mashq. Oʻqing. Gap oxirida ovozingizni pasaytiring.

ERKSEVAR XALQLAR SOʻZI

Dunyodagi erksevar xalqlar bir soʻz-ni sevib aytadilar. Bu soʻz turli tillarda turlicha yangraydi. Odamlar bu soʻzni baralla aytadilar. Bu soʻz tinchlik soʻzidir. Chunki xalqlar tinch, baxtiyor yashashni istaydilar.

Koʻchiring. Har bir gap qanday mazmun anglatyapti?

4- mashq. Oʻqing. Har bir gapning qayerda tugaganligini aniqlang. Gap oxirida ovozingizni pasaytiring.

Doʻstlikda hikmat koʻp boʻladi biz doʻstlikni ulugʻlaymiz doʻstlik kishilarni bir-biriga yaqinlashtiradi jahonda tinchlik boʻlishi ham shu doʻstlikka bogʻliqdir.

Har bir gapning oxiriga nuqta qoʻyib koʻchiring. Gapning birinchi soʻzi yozuvda qanday harf bilan boshlanishini eslang.

5- mashq. Oʻqing.

Vatanimiz keng va bepoyon. Biz Vatanimizni sevamiz.

Vatanimizda tinchlik barqaror bo'lsin!

Siz Vatanimizga munosib farzand bo'lish uchun nimalar qilyapsiz?

Gaplarni ko'chiring. Gaplar qanday mazmun bildiriyapti?

Gaplarning oxiriga qanday tinish belgilari qo'yilgan?

6- mashq. Har bir qatorda berilgan so'zlardan gap tuzing.

mevazor, akam, bilan, bordik, bog'ga shaftoli, olma, bog'da, olxo'ri, biz, gullagan, daraxtlari, ohak bilan, daraxtlarni, oqladik.

Tuzgan gaplaringizni yozing. Siz qanday gaplar yozdingiz?

7- mashq. Oqing.

Sakkizinchi mart bugun,
Quvonchlarim bir jahon.
Bayramingiz muborak,
Aziz ona, onajon!
So'zlari bol, durdona,
Mehnatda eng mardona,
Olam ichra yagona
Sizsiz, ey aziz ona!

(J. Jabborov)

Savollarga javob bering.

1. Biz mart oyida qanday bayramni nishonlaymiz?
 2. Bu bayram nimasi bilan qimmatli?
 3. She'r necha gapdan iborat?
 4. Gaplar oxiriga qanday tinish belgilari qo'yilgan?
- Oxiriga nuqta qo'yilgan gapni ko'chiring.

8- mashq. Onangiz yoki buvingiz haqida hikoya qiling. Tuzgan hikoyangizni yozing.

9- mashq. O'qing.

Hurmatli onajon!

Sizni 8- Mart bayrami bilan tabriklayman.

Sizga sog'liq, quvonch va uzoq umr ti-
layman.

O'glingiz Odiljon.

Siz ham onangizga, buvingizga, opangizga tab-
riknoma yozing.

Odiljonning tabriknomasi necha gapdan iborat?
Gap oxiriga qanday tinish belgilari qo'yilgan?

10- mashq. O'qing.

Oftob yaxshimi,
Odob yaxshimi?
Oftob berar nur,
Odob-chi – huzur.

Lolalar uchun
Oftob yaxshidir.
Bolalar uchun
Odob yaxshidir...

(Po'lat Mo'min)

Ko'chiring. She'r necha gapdan iborat? Ular
qanday gaplar? Gaplarning oxiriga qanday tinish
belgisi qo'yilgan?



Har bir gap biror maqsad bilan
aytiladi.

Kishilar bir-birlari bilan fikr al-
mashishda biror narsa haqida xabar
beradilar, so'raydilar yoki his-hayajon
bilan so'zlaydilar.

11- mashq. O'qing. Matnda nechta gap borligini va ular qanday gap ekanini ayting.

Oybek nomli maktab o'quvchilari yaxshi ish boshladilar ular hozirdanoq noyob gullar urug'ini yig'yaptilar mart oyida urug'ni tuproqli yashikda undiradilar bahor kelishi bilan ko'chatlarni maktab gulzoriga o'tqazadilar

Har bir gapning oxiriga zarur tinish belgisini qo'yib ko'chiring.

12- mashq. O'qing. Matnda nechta gap borligini ayting.

Do'lana – ajoyib meva respublikamizda do'lananing beshta turi bor do'lana tog'li joylarda, shag'alli qiyaliklarda o'sadi

Har bir gapning oxiriga tinish belgisini qo'yib ko'chiring. Ular qanday gaplar?

13- mashq. Yil fasllari haqida matn tuzing va yozing. Bunda quyidagi savollardan foydalaning.

Bir yil necha oydan iborat?

Bir yilda necha fasl bor?

Bahor fasliga qaysi oylar kiradi?

O'quv yili qaysi faslda boshlanadi?

Qaysi oylarda ta'tilga chiqasiz?

Tuzgan matningiz necha gapdan iborat?

Ular qanday gaplar?

14- mashq. Bir-biringizdan biror narsa haqida so‘rang.

Bunda siz qanday gaplardan foydalandingiz?

Savollarga javob bering. Savol berish va shu savollarga javob qaytarish maqsadida tuzgan gaplaringizni yozing. Har bir gapning oxiriga kerakli tinish belgisini qo‘ying.

15- mashq. Darak, so‘roq va his-hayajonni bildirgan gaplar tuzing. Gap oxiriga kerakli tinish belgilarini qo‘ying.

16- mashq. O‘qing. Matnda nechta gap borligini ayting. Ular qanday gaplar?

Komilaning kichkina darsxonasi bor u o‘quv qurollarini shu yerda **saqlaydi** u o‘rtog‘i **Malohat** bilan dars tayyorlaydi Malohat Komilaga chiroyli yozishni **o‘rgatadi** ikki o‘rtoq dars tayyorlash sirlarini yaxshi bilishadi.

Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga so‘roq bering. Shu so‘zlar o‘rniga so‘roq ifodalovchi so‘zlarni qo‘yib gaplarni qayta o‘qing va yozing, tegishli tinish belgilarini qo‘ying.

17- mashq. O‘qing. Gaplarning chegarasini aniqlang. Ular qanday gaplar?

Non – aziz ne‘mat ortib qolgan non bo‘lagini har yerga tashlamang nonning uvog‘ini ham uvol qilmaslik kerak

(Gazetadan)

Tinish belgilarini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

NAVRO‘Z – BAHOR BAYRAMI



18- mashq. She'ni ifodali o'qing.

NAVRO‘Z NASHIDASI

Yana olam bo‘ldi yashil, serfusun,
Yana qizg‘aldoqlar ochildi gulgun.
Bu yilgi ko‘klaming o‘zgacha butun,
Vatanim, muborak bo‘lsin Navro‘zing!

(E.Vohidov)

She'r qanday gaplardan iborat? Ko'chiring, tekshiring.

19- mashq. O'qing. Aralash holda berilgan darak, undov gaplarni o'z o'rniga qo'yib, hikoya tuzing.

U otasi bilan ko'chaga chiqdi. Qo'lida pufaklar bor edi. Shu kuni Muxlisa xur-

sand bo'lib yurdi. Hamma yoq chiroyli. Kishilar shod, xursand. Muxlisa: «Uzoqdagi do'stinga bor!» – deb pufaklaridan birini uchirib yubordi. Yangi ko'ylagini kiydi. Muxlisa erta uyg'ondi. Otasi unga ko'k, qizil pufak berdi. Navro'z bayramiga Muxlisa ham chiqadigan bo'ldi.

Tuzgan hikoyangizga sarlavha qo'yib, ko'chirib yozing. Hikoyadagi undov gapni aniqlang. Uning oxiriga qanday belgi qo'yilgan?



Biror narsa haqida darak (xabar) bildirgan gap **darak gap** deyiladi. Darak gap oxirida ovoz pasayadi. Darak gapning oxiriga **nuqta** (.) qo'yiladi.

Biror narsa haqida so'roq bildirgan gap **so'roq gap** deyiladi. So'roq gapning oxiriga so'roq belgisi(?) qo'yiladi.

Kuchli his-hayajon, quvonch, ajablanish bilan aytilgan gap **undov gap** deyiladi. Undov gapning oxiriga **undov belgisi** (!) qo'yiladi.

20- mashq. O'qing. Matnni gaplarga ajrating. Har bir gapning oxiriga qanday tinish belgisi qo'yilishini aniqlang.

Bizning mamlakatimizda sportga katta e'tibor beriladi sport sog'liqni mustahkamlaydi u kishilarni baquvvat va kuchli qiladi siz sport bilan shug'ullaning yugu-

ring, suzing, chang'ida, chanada va konkida uching O'zbekiston sportchilariga shon-sharaflar bo'lsin

Ko'chiring. Har bir gapning oxiriga kerakli tinish belgisini qo'ying.

21- mashq. O'qing. She'rda qanday gaplar borligini ayting.

Tarixlardan so'zlaydi,
Yaxshilikni ko'zlaydi.
Donolarning naqlidan,
Ulug'larning aqlidan.
So'zlab onging oshirar,
Kuch-g'ayrating toshirar.
U nimadir, Mohitob?
– Topdim, dada, u...!

(I. Donish)

Ko'chiring, tekshiring.

22- mashq. Har bir gapni o'ziga xos ohang bilan o'qing.

Hilola tez-tez kasal bo'ladi. Uning sinfdosh o'rtog'i Zamira sog'lom va chaqqon. Nima uchun shunday? Chunki Zamira har kuni ertalab yuguradi, badantarbiya qiladi. Qishda chang'i va konkida uchadi. Eh, qish qanday maza! Endi Hilola ham Zamiradek sog'lom bo'lishga ahd qildi.

Ko'chiring. Siz qanday gaplarni yozdingiz?

Gapning bosh bo'laklari

23- mashq. O'qing. Gaplarni namunada ko'rsatilgandek yozing.

Namuna: (Kimlar?) *O'quvchilar* (qanday?) *yaxshi* (nima qiladilar?) *o'qiydilar*.

O'quvchilar mehnatni sevadilar. Ular shanbaliklarda faol qatnashadilar.

Gapda so'zlarning bog'lanishini ko'rsating.

24- mashq. O'qing.

1. Ilg'or terimchilar paxtalarni terdilar.
2. A'lochi o'quvchilar jamoat ishlarida faol qatnashadilar.

Gapda o'zaro bog'langan so'zlarni aniqlang. Buning uchun *avval kim? yoki nima?* so'rog'iga javob bo'lgan so'zni toping va tagiga chizing.

Namuna: (kimlar?) *Terimchilar* (nima qildilar?) terdilar.

Terimchilar so'zi orqali uni izohlagan so'zga so'roq bering. Qanday *terimchilar?* – *Ilg'or terimchilar*.

Terdilar so'zi orqali uni izohlagan so'zga so'roq bering. Nimani terdilar? – *Paxtani terdilar*.



Gapning kim yoki nima haqida aytilganini bildiradigan gap bo'lagi **ega** deb ataladi. Gapning ega haqida nima deyilganini bildiradigan bo'lagi esa **kesim** deyiladi. Ega va kesim gapning **bosh bo'laklaridir**. Ular birlikda mazmun bildiradi.

*Bolalar maktabda o'qiydilar. Bu gapda bosh bo'laklar ikkita:
(Kimlar?) Bolalar (ega) (nima qiladilar?) o'qiydilar (kesim).*

25- mashq. O'qing. Har bir gap kim haqida aytilganini aniqlang.

Rassom rasm chizyapti. Sozanda musiqa chalyapti. Xonanda qo'shiq kuylayapti. Masxaraboz kuldiradi. Shifokor davolaydi. O'qituvchi o'qityapti.

Ko'chiring. Har qaysi gapdagi bosh bo'laklarning tagiga chizing.

26- mashq. So'zlarni o'qing va ular ishtirokida gaplar tuzing.

yayrab, bog'chada, o'smoqdalar, kichkintoylar

o'qiyaptilar, bolalar, kitobni, qiziqib

Tuzgan gaplaringizni yozing, ega va kesimni aniqlang, eganing tagiga bir, kesimning tagiga ikki chiziq chizing.



Ega bosh bo'laklardan biri bo'lib, u kim?, kimlar?, nima?, nimalar? kabi so'roqlardan biriga javob bo'ladi.
Kesim ham bosh bo'lak bo'lib, nima qildi?, nima qildilar?, nima qiladilar?, nima qilyaptilar? so'roqlaridan biriga javob bo'ladi.

27- mashq. Soʻzlardan gaplar tuzing.

doʻkondan, Azim, oldi, qarmoq
yogʻochga, Qodir, uni, bogʻladi
yakshanba, oviga, bordilar, ular, baliq
Azim, tashladi, qarmoqni, suvga
bolalar, tutdilar, baliq, beshta

Tuzgan gaplaringizni yozing. Gapdagi bosh boʻlaklarni soʻroqlar orqali aniqlang. Ega va kesimning tagiga chizing.

28- mashq. Oʻqing.

Maktabimizda kutubxona yaxshi ishlaydi. Kutubxonachi tez-tez yangi kitoblar keltiradi. Oʻquvchilar kitobni juda sevadilar. Kamol koʻp kitob oʻqiydi.

Koʻchiring. Har qaysi gapdagi bosh boʻlaklarning tagiga chizing.

29- mashq. *Oʻynaydi, tikadi* soʻzlarini soʻroqlar boʻyicha oʻzgartirib, gaplarni koʻchiring.

Vali (nima qildi?) oʻynaydi. Salima (nima qiladi?) tikadi. Bolalar (nima qilyaptilar?) oʻynayaptilar. Vohid (nima qildi?) oʻynadi. Bolalar (nima qilishdi?) oʻynadilar. Nozima xola (nima qildi?) tikdi. Hakima (nima qiladi?) tikadi. Biz (nima qildik?) oʻynadik.

Bosh boʻlaklarni aniqlang, eganing tagiga bir, kesimning tagiga ikki chiziq chizing.

30- mashq. Berilgan soʻzlardan gaplar tuzing.

bu, yil, yogʻdi, yomgʻir, koʻp
dehqonlar, hosil moʻl, oldilar

Gaplarni yozing. Bosh boʻlaklarning tagiga chizing.

31- mashq. Matnni oʻqing.

9- MAY – XOTIRA VA QADRLASH KUNI

Har yili toʻqqizinchi may kunini «Xotira va Qadrlash kuni» sifatida nishonlaymiz. Xalqimiz bu kunni juda qadrlaydi. Chunki ming-minglab kishilar Vatanimiz ozodligi va mustaqilligi uchun kurashib, qurbon boʻldilar. Biz ularni hamisha qadrlaymiz va xotirlaymiz.

Koʻchiring. Bosh boʻlaklarning tagiga chizing.

32- mashq. Oʻqing. Koʻchiring. *Nima?* soʻrogʻiga javob boʻlgan soʻzlarning tagiga chizing.

Bugun bayram, bu bayram –
Millionlarning bayrami.

Yer yuzida tinch hayot
Qurganlarning bayrami.

(Z. Diyor)

Savollarga javob bering.

1. Nima uchun har yili toʻqqizinchi may kunini «Xotira va Qadrlash kuni» sifatida nishonlaymiz?
2. Sheʼr necha gapdan iborat? Ikkinchi gapning mazmunini tushuntirib bering.

33- mashq. O'qing.

Bolalar toshbaqa topib oldilar. Toshbaqaning bir oyog'i yaralangan edi. Bolalar uni yaxshi parvarish qildilar. Toshbaqaning yaralangan oyog'iga dori qo'yib bog'ladilar. Toshbaqaning oyog'i tez kunda tuza-lib ketdi. Sentabrda bolalar uni maktabga sovg'a qildilar. Hozir u maktab jonli burchagida yashayapti.

Matnga sarlavha toping va ko'chiring. Bosh bo'laklarning tagiga chizing.

Ikkinchi darajali bo'laklar

34- mashq. O'qing. Matnda nechta gap borligini ayting.

Do'lana tog' va to'qaylarda o'sadi olimlar do'lanada inson uchun zarur bo'lgan vitaminlar borligini aniqladilar hozir uning mevasi va gulidan turli dorilar tayyorlanadi.

Ko'chiring. Har bir gapning oxiriga nuqta qo'ying. Bosh bo'laklarning tagiga chizing.



Gapda **ikkinchi darajali bo'laklar** ham bo'ladi. Ikkinchi darajali bo'laklar bosh bo'laklarni yoki boshqa ikkinchi darajali bo'laklarni izohlaydi. Ular fikrni yana ham to'liq ifodalashga yordam beradi.

Ikkinchi darajali bo'laklar ham gapda biror so'roqqa javob bo'ladi.

Solishtiring:

1. *Bolalar kuyladilar.*

Kimlar *kuyladilar?* – *bolalar* (ega);
bolalar nima qildilar? – *kuyladilar*
(kesim).

2. *Bolalar yangi qo‘shiqni birgalik-
da kuyladilar.* Nimani *kuyladilar?* –
qo‘shiqni (ikkinchi darajali bo‘lak);
qanaqa *qo‘shiqni?* – *yangi* (ikkinchi
darajali bo‘lak); qanday *kuyladilar?* –
birgalikda (ikkinchi darajali bo‘lak).

35- mashq. O‘qing. Ikkinchi darajali bo‘laklarni aniqlang.

SHAFQAT VA MARHAMAT

Odam bolalariga lozim bo‘lgan yaxshi ishlardan biri muhtojlarga shafqat va marhamat qilmoqdir.

Shafqat va marhamat esa biron-bir narsani so‘ragan vaqtda bor bo‘lsa, aymasdan bermoq, agarda yo‘q bo‘lsa, shirin so‘z ila uzr aytmoq va qo‘ldan kelgancha boshqalarga yordamda bo‘lmoqdir.

(*Munavvarqori Abdurashidxonov*)

Ko‘chiring. Ega va kesimning tagiga chizing.

36- mashq. Gaplarni mazmunga mos so‘zlar bilan to‘ldirib yozing. Bunda qo‘yish uchun berilgan so‘zlardan foydalaning.

O'quvchilar sinfga ... olib keldilar. Akva-
riumda mayda ... suzyapti. Suvda yashil ...
bor. Bolalar baliqlarga navbat bilan

Qo'yish uchun so'zlar: *baliqchalar, akva-
rium, qaraydilar, o'simliklar.*

Qo'yilgan so'zlarga so'roq bering. Bosh va ikkin-
chi darajali bo'laklarni aniqlang. Eganing tagiga
bir, kesimning tagiga ikki chiziq va ikkinchi dara-
jali bo'lakning tagiga to'lqinli chiziq chizing.

37- mashq. O'qing.

Kuchli shamol qo'zg'aldi. Daraxtlardagi
sarg'aygan barglar to'kildi. Hamma yoqni
barg qopladi.

Gaplarni ko'chiring. So'roqlar yordamida gap
bo'laklarini namunadagidek tahlil qiling.

Namuna: *Kuchli shamol qo'zg'aldi.* Nima
qo'zg'aldi? – *shamol (ega); shamol nima qildi?*
– *qo'zg'aldi (kesim); qanday shamol?* – *kuchli*
(ikkinchi darajali bo'lak).

38- mashq. O'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlar-
ga so'roq bering va gapning qanday bo'lagi ekani-
ni ayting.

KECHQURUN

Kechqurun **quyosh** botdi. **Atrofni** qoron-
g'ilik bosdi. Osmonda to'lin oy ko'rindi. Oy
kechani yoritdi. **Mayin** shamol esdi. **Sayo-
hatchilar** uzoq suhbatlashdilar.

Ko'chiring. Ega, kesim va ikkinchi darajali bo'laklarning tagiga chizing.

Namuna: Kechqurun quyosh botdi.

39- mashq. O'qing.

Dangasaning g'ayrati ish bitganda qo'zir. Iz quvgan izlaganin topar. Intilgan elga yoqar. Ish ustasidan qo'rqrar.

Ko'chiring. Bosh va ikkinchi darajali bo'laklarni belgilang. Maqollarning mazmunini tushuntiring.

40- mashq. Har bir qatorda berilgan so'zlardan alohida gaplar tuzing.

dalani, g'o'zapoyadan, tozaladilar, dehqonlar

yordamlashdilar, kattalarga, bolalar haydadi, yerni, traktorda, traktorchi

qizg'in, borayotir, ishlar, bahorgi, dalalarda

Tuzgan gaplaringizni yozing. Bosh va ikkinchi darajali bo'laklarni belgilang.

41- mashq. Gaplarni savollar yordamida kengaytirib yozing.

Namuna: *Ustalar qurishyapti.* (Qanday ustalar?) Malakali ustalar (nima qilishyapti?) qurishyapti. Malakali ustalar (nimani?) uyni qurishyapti.

Rustam keldi (qachon?, qayerdan?).
Quyosh qizdirdi (qachon?, nimani?).

Gapda soʻzlarning bogʻlanishi

42- mashq. Birinchi ustundagi gaplarni ikkinchi ustundagi soʻzlar yordamida kengaytirib yozing. Soʻzlarni gapning maʼnosiga koʻra tanlang.

Qushlar uchishyapti.	vokzalga
Bolalar chopishyapti.	ilgakka
Oʻquvchilar joʻnashyapti.	janubga
Oʻquvchilar shoshilishyapti.	maydonda
U sochiqni osib qoʻydi.	sayohatga

Ega va kesimga soʻroq bering. Shu boʻlaklarga bogʻlanib kelayotgan soʻzlarni namunadagidek yozing.

Namuna: *Qushlar janubga uchishyapti.*

Nimalar uchishyapti? – *qushlar uchishyapti.*

Qayerga uchishyapti? – *janubga uchishyapti.*

43- mashq. Oʻqing.

Yozda quyosh yerni qattiq qizdirdi. Gʻoʻzalarning barglari soʻliy boshladi. Tajribali suvchi gʻoʻzalarni tunda sugʻordi. Chanqagan gʻoʻzalar jonlandi.

Birinchi gapni koʻchiring. Undagi bosh boʻlaklarning tagiga chizing. Ega va kesimga soʻroq bering. Bu bolaklarga bogʻlanib kelayotgan soʻzlarni namunadagidek yozing. Yozganlaringizni tekshiring.

Namuna: *Yozda quyosh yerni qattiq qizdirdi.*

Nima qizdirdi? – *quyosh qizdirdi.*

Quyosh nima qildi? – *quyosh qizdirdi.*

Qachon qizdirdi? – *yozda qizdirdi.*

Nimani qizdirdi? – *yerni qizdirdi.*

Qanday qizdirdi? – *qattiq qizdirdi.*

Ikkinchi gapni ko'chiring. Undagi bosh bo'laklarning tagiga chizing va ularga ma'no jihatdan bog'langan so'zlarni namunadagidek yozing.



Gapda so'zlar o'zaro bog'lanadi.
Gapda so'zlarning bog'lanishi so'roqlar yordamida aniqlanadi.

44- mashq. O'qing.

Bog'da mayin shamol esdi. Gullardan yoqimli hid taraldi. Qushlar sho'x-shodon sayradi.

41- mashqdagi namunadan foydalanib gaplarni tahlil qiling, yozing.

45- mashq. Berilgan so'zlardan gaplar tuzib yozing.

fermada, mening, ishlaydi, onam
ozoda, ferma, va, yorug'
fermada, mashinada, sog'iladi, sigirlar
onam, sog'uvchi, ifg'or, sut, fermada

Gaplarning oxiriga qanday tinish belgi qo'ydingiz?
Bular qanday gaplar? Bosh va ikkinchi darajali bo'laklarni belgilang.

46- mashq. O'qing. Matnda nechta gap borligini ayting.

Osmonni qora bulut qopladi momaqaldiroq qattiq gumburladi kuchli shamol qo'zg'aldi

barglar havoda aylanib uchdi yerga yomg'ir tomchilari tushdi

Gaplarni ko'chiring. Ulardagi bosh bo'laklarning tagiga chizing. Birinchi gapdagi o'zaro bog'langan so'zlarni ayting.

47- mashq. So'roqlarga mos so'zlar topib, gap tuzing.

N i m a ?	Qayerda?	Nima q i l a d i ?
Olmaxon	daraxtda	sakrab yuradi.
Baliq
Qushlar

Tuzgan gaplaringizni yozing, bosh va ikkinchi darajali bo'laklarni belgilang. Eganing tagiga bir chiziq, kesimning tagiga ikki chiziq, ikkinchi darajali bo'laklarning tagiga to'lqinli chiziq chizing.

48- mashq. Oqing. Berilgan so'zlardan gaplar tuzing.

Dehqon, yer, o'rtog'idan, olibdi, sotib haydabdi, yerni, dehqon chiqibdi, tilla, to'ldirilgan, xumcha, undan dehqon, olib boribdi, o'rtog'iga, xumchani, olmabdi, o'rtog'i tillalarni, dehqon, ulashibdi, kambag'al-larga

Tuzgan hikoyangizga sarlavha topib yozing. Gaplardagi bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning tagiga chizing.

49- mashq. Quyidagi savol va topshiriqlar asosida gap haqida soʻzlab bering.

1. Gap deb nimaga aytiladi?
2. Gaplar aytilish maqsadiga koʻra qanday boʻladi? Darak gapga misol keltiring.
3. Soʻroq gap nima? Misol keltiring.
4. Qanday gaplarni his-hayajon gaplar deymiz? Misol keltiring.
5. Gapning bosh boʻlaklariga nimalar kiradi? Oʻzingiz gap tuzing va uning bosh boʻlaklarini ayting.
6. Ega deb nimaga aytiladi? Kesim nimani bildiradi?
7. Ikkinchi darajali boʻlak gapda nima uchun kerak?

50- mashq.

SOʻNGGI DARS

Oʻquv yilining soʻnggi qoʻngʻirogʻi chalin-di. Hammamiz sinfga kirdik. Oʻqituvchimiz: – Sizlar yil davomida yaxshi oʻqidingiz, koʻp narsalarni bilib oldingiz. Endi taʼtilda miriqib dam olasizlar, – dedilar. Soʻngra oʻqituvchimiz taʼtil davomida yangi oʻquv yiliga tayyorgarlik koʻrishni unutmasligimiz toʻgʻrisida ham gapirdilar. Biz taʼtilda nimalar qilishimiz, qanday badiiy kitoblarni oʻqishimiz haqida maslahatlashdik.

Shundan keyin oʻqituvchimiz bilan mamnun xayrlashdik.

LUG'AT

A

adib
adir
albom
aprel
avgust
avlod

B

badan
badavlat
baho
bahor
bajarmoq
bajon-u dil
baland
baliqchilik
balchiq
barala
bardam
bayon
bayram
behi
binafsha
bodring

D

dadillik
daftar

dangasa
daraklamoq
daraxt
dars
davlat
dekabr
do'kon
do'st

E

egov
ekskavator
elak

F

fabrika
farzand
fasl
fil

G

gandiraklamoq
gapdon
gplashmoq
garmdori
gavjum
gazeta
gazlama
gasht

gilamchilik
gulkaram
gulsapsar
gulxan
go'sht

H

handalak
harf
havas
havo
hayvonot

I

iflos
isiriq
iyul
iyun
ishtaha
ishtiyoq

J

jahon
jangovar
javob
javon
jiyda
juft

K

kaft
kamalak
kanal

kapalak
karam
kitob
konki
ko'prik

L

lavlagi
loviya
lug'at

M

mart
may
mashina
mebel
mehnat
mehribon
metro
minnatdor
mukofot
mumkin
mushuk

N

navbatchi
na'matak
ninachi
noyabr
no'xat

O

ohak

oktabr
olxo‘ri
ommaviy

P

palto
parta
payvand
piyola
piyoz
pichoq
pomidor

Q

qattiq
qavat
qiyshiq
qulupnay
qo‘ng‘iroq

R

raketa
rasm
rassom
ravshan
rayhon
robot
ro‘yxat

S

sabzavot
sabzi
Samarqand

savol
sentabr
sigir
sinf
soat
supurgi

T

tabiat
tamom
telefon
temirchi
texnika
tomoshabin
tovush
toshbaqa
Toshkent
traktor
tramvay
tutun
tuxum

U

ulug‘
unum
unumdor
uvol
uzum
uzun

Z

zavod
zang

zangori
ziyofat
zulm

V

vahshiy
vazifa
vodiy
voqea
vovullamoq
voyvoylamoq

O'

o'qituvchi
o'quvchi
o'rdak
o'simlik
o'chirg'ich

X

xabar
xat
xato
xayrlashmoq
xirmon
xodim
xursand
xo'jalik
xo'roz

G'

g'alaba
g'alla

g'uncha
g'urur
g'o'za

Y

yalpiz
yaxlit
yirtqich
yodladi
yolg'iz
yovvoyi
yulduz
yuvvosh

Z

zahar
zarar

Sh

shabada
shahar
shaftoli
shamol

Ch

chala
chana
chatoq
chin
cho'p

MUNDARIJA

TAKRORLASH

Gap.....	4
----------	---

TOVUSHLAR VA HARFLAR

Alifbo.....	9
Tovushlar va harflar.....	10
Tutuq belgisi.....	12
yi, iy, uv, yo‘ harf birikmalari.....	14
Urg‘u. Urg‘uli bo‘gin.....	17
Unli tovushlar va ularni yozuvda ifodalash.....	20
Jarangli va jarangsiz undosh tovushlar.....	26
So‘z oxirida kelgan jarangli va jarangsiz undoshlar.....	38
Aytilishida tushib qoladigan undoshlarning yozilishi.....	39
Ketma-ket kelgan bir xil undoshli so‘zlarning yozilishi.....	40

SO‘Z TARKIBI

So‘zning o‘zagi va o‘zakdosh so‘zlar.....	47
So‘z yasovchi qo‘shimchalar.....	53
So‘z o‘zgartuvchi qo‘shimchalar.....	60

NARSA VA SHAXSNING NOMINI, HARAKATINI, BELGISINI BILDIRGAN SO‘ZLAR

Narsa va shaxsning nomini bildirgan so‘zlar.....	66
Narsa va shaxsning harakatini bildirgan so‘zlar..	73
Narsa va shaxsning belgisini bildirgan so‘zlar...	79

GAP

Gap.....	86
Gapning bosh bo‘laklari.....	95
Ikkinchi darajali bo‘laklar.....	99
Gapda so‘zlarning bog‘lanishi.....	103
Lug‘at.....	107

Valida Sobirovna RAHMONOVA

ONA TILI

*Yordamchi maktablarning
4-sinfi uchun darslik*

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi
vazirligi tasdiqlagan

Qayta ishlangan nashri

Muharrir **Shahlo Karimova**
Badiiy muharrir **Yasharbek Rahimov**
Texnik muharrir **Yelena Tolochko**
Kichik muharrir **Gulbayra Yeraliyeva**
Musahhah **Umida Rajabova**
Kompyuterda teruvchilar **Gulchehra Azizova,**
Gulbayra Yeraliyeva

Litsenziya raqami AI № 163. 09.11.2009. Bosishga 2013-yil 28-iyunda ruxsat etildi. Bichimi 60×90^{1/16}. Ofset qog'ozi. PragmatikaUZ garniturası. Shartli bosma tabog'i 7,0. Nashr tabog'i 4,178. Adadi 1317 nusxa. Shartnoma № 50-2013. Buyurtma № ...

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 100129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30. Telefon: (371) 244-10-45. Faks (371) 244-58-55.

..... chop etildi. 100,,, Toshkent, 1.